

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Ingliz tili fonetika kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BADIY TARJIMADA TEMPORALLIK

Bajardi: Paradaeva nigina
Ilmiyrahbar: Yakubov F.

Bitiruv malakaviy ish himoyaga tavsiya etildi

«_____» _____ 2013 y.

Bitiruv malakaviy ish baholandi

«_____» _____ 2013



Samarqand - 2013

MUNDARIJA

I.	KIRISH.....	2
II.	ASOSIY QISM.....	9

BOB I. BADIY ASARDA TEMPORALLIK TUSHUNCHASI

1.1.	Temporallikning ifodalanish usullari.....	9
1.2.	Badiiy matnda temporallik tushunchasi	13
1.3.	Ilmiy matnlarda temporallik.....	33

BOB II. BADIY TARJIMADA TEMPORALLIK

2.1.	Badiiy tarjimada temporallikning ifodalanishi.....	40
2.2.	Badiiy tarjimada temporallik tahlili.....	54

III.	XULOSA VA TAKLIFLAR	62
-------------	----------------------------------	-----------

IV.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	64
------------	--	-----------

V.	AMLIY TARJIMA (ILOVA)	
-----------	------------------------------	--

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov insoniyatning eng yuksak boyligi bo'lgan ma'naviyatning ma'no – mazmuni, uning jamiyatdagi taraqqiyot o'rni batafsil yoritilgan “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ma'naviyatni shakllantiruvchi omillardan biri ona tilimizga ehtirom va uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini hamda nufuzini ko'tarish, yuksaltirish ekanligini alohida qayd etdilar. Muhtaram yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: “... o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir” [1; 83b].

Dunyoning rivojlanish manzarasiga nazar tashlasak, unda turli sohalar turlicha rivojlangan va rivojlanmoqda. Mamlakatlarning o'zaro rivojlanishi, tajriba almashinishida til muhim o'rinni egallaydi. Shunday ekan, oxirgi yillar mobaynida tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganiday, aynan tarjima san'ati xalqimizning boy milliy an'alarini, qadriyatlarini, turmush tarzini, uning insoniy fazilatlarini jahon jamoatchiligiga to'laqonli tarzda namoyish qila oladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda tarjima san'atiga va ilmiy faoliyatning turi bo'lmish tarjimashunoslikka e'tiborning qay darajada ortib borayotganligi mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov o'zining “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ” asaridagi tarjima san'ati xususidagi fikrlari isbot bo'la oladi . Jumladan, I. A. Karimov : “ ... endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur . Buning uchun xorijiy tillarni , adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud” [1;139b].

Darhaqiqat, tarjima bu yuksak badiiy ijoddir, ijod bo'lganda ham gohida asliyat muallifidan ko'proq izlanish, mehnat sabr-toqat talab qiladigan, turli xil materiallar ustida tahlillar olib boradigan ijoddir. Millatlar o'rtasida o'zaro aloqa

qilishga ehtiyoj kuchaygani sari tarjimachilik faoliyati ham kengayib boraveradi. Bizning yurtimiz ko'p millatli xalq hisoblanadi. Vatanimiz tarjimonlari oldiga ko'ndalang qo'yilayotgan vazifalar ularga fan, madaniyat va texnika sohasidagi mo'jizalar, olamshumul hodisalarni bevosita va bilvosita tarjimalar orqali yetkazishdir.

Tarjima mutaxassislaridan Isaak Zinger tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lmog'i kerak, deb sanab ko'rsatadi. Ammo duch kelgan kishi o'z-o'zidan bunday ko'nikma va malakalar sohibi bo'la olmaydi. U avvalo asliyat tilini puxta egallashi lozim. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshlandi. Yurtimiz mustaqil davlat sifatida tarkib topgan dastlabki davrdan boshlab, ertangi kunimiz egasi bo'lgan barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Yoshlikda o'rganilgan bilim – toshga o'yib bitilgan yozuvdek gap. Kelajakda tarjimon bo'laman, deb o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan kishi tilni puxta o'rganib olgach, yanada murakkabroq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim. Chunki qo'lga qalam olib tarjima qilish uchun faqatgina tilni bilish ozlik qiladi, chamamda. Shu sababli, mamlakatimiz chet tillar o'rgatish oliygohlarining barchasida alohida tarjimonlik fakultetlari tashkil etilgan bo'lib, bu fakultetlarda ish olib borayotgan tarjimashunoslar tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlamoqdalar. Bu yo'nalish talabalari uchun che tilidan tashqari yana tarjima tarixi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, mamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik, manaviyatshunoslik, chet el adabiyoti, jamiyatshunoslik kabi fanlar ham puxta o'rgatiladi. Zero tarjimon har sohadan xabardor, tadqiqotchi, joiz bo'lsa "qomusiy olim" bo'lmog'i talab etiladi.

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tahlil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni, Respublika Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tahlil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" nomli qarori va boshqa me'yoriy xujjatlar O'zbekiston ilm-fanni, shu jumlada, tilshunoslikni ham rivojlanishda muhim rol o'ynamoqda. Bu borada

respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik hamkorlarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorligida o'z buyuk kelajagini bunyod etayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Shundan kelib chiqib bu bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan mavzu hozirgi kunda har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki ta'lim tizimida sifat bosqichi hisoblangan bugungi kun uchun fan taraqqiyotinig ilg'or yutuqlaridan foydalanib ish ko'rish nihoyatda samaradorlidir.

Bakalavrlik bitiruv malakaviy ishiga badiiy tarjimada temporallikni saqlash masalasi ko'ndalang qo'yilganligi bejiz emas. Zero, tarjimashunoslik ilmi oldida turgan badiiy matn va badiiy tarjimada temporallikning saqlanishi masalasi hozirgi vaqtda juda kam o'rganilgan muammolardan sanaladi. Ilm-fanning (zamon tushunchasi nafaqat tilshunoslik balki fizikaning ham tadqiqot obyekti sanaladi) fundamental kategoriyasidan bo'lib, zamon til univarsaliyasi sanaladi va tilning muhim elementlari qatoridan o'rin egallaydi. Shu sababli tilshunoslikda ushbu kategoriya tadqiqoti alohida, "faxrli" o'rinni egallaydi.

Yurtimiz olimlari tomonidan keyingi davrlarda olib borilayotgan tadqiqotlarni e'tirof etish bilan birga bu mavzudagi ilmiy ishlar deyarli amalga oshirilmaganligini ham ko'rsatish muhim. Badiiy matnda temporallik kategoriyasi ustida S. V. Lixachev ("О некоторых значениях грамматических форм времени в художественных текстах"), Z. Ya. Turaeva ("Категория времени: Время грамматическое и время художественное") kabi olimlar chuqur tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular ilm-fan ahli uchun ushbu kategoriyaning badiiy matnda tutgan ahamiyati, funksiyasi haqida to'liq ma'lumot berganlar. Ammo shunga qaramasdan, tarjima matni kommunikativ mazmunining hosil qilinishi va uning etilishini belgilovchi qonuniyatlar, lisoniy vositalarni ajratish hamda ushbu mazmun maydonida temporallik semantikasining ishtirokini aniqlash masalasi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda. Temporallik kategoriyasining badiiy tarjimada berilishi, temporallikning tarjimada qay darajada saqlanishi masalasi

xususida ilmiy tadqiqot ishlari deyarli amalga oshirilmagan va o'rganilmaganligicha qolmoqda. Malakaviy ishimizda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelinishiga ham aynan ushbu omillar sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda ko'pgina olimlar ko'pqirrali, murakkab tilning real borlig'i ustida tadqiqot olib bormoqdalar. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham eng avvalo grammatik va badiiy zamon kategoriyasiga aniqlik kiritish yuzasidan ish olib boradi. Tarjima ham shu o'rinda ham badiiy ijod va lingvistik hodisa sanaladi. Tarjima – tilshunoslikning tadqiqot obyekti. Tarjima nazariyasi keying paytlarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Olimlar tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish, shu asosada tarjima amaliyoti ravnaqi uchun zarur ilmiy umumlashmalar yaratish ishiga chinakamiga kirishib ketdilar. Mazkur sa'y-harakatlar asosan tarjimaning tadqiqotchilar tomonidan nutq faoliyatining alohida ko'rinishi sifatida tan olinayotganligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, endilikda tarjima masalalari ko'proq tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

Tarjima amaliyotining tom manoda tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurligi to'g'risidagi fikr, aniqrog'i, tarjimashunoslikni tilshunoslikning ajralmas bo'lagi sifatida tan olish taxminan o'tgan asrning 70-yillari oxirigacha A. V. Fyodorov va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilib, ko'proq grammatik holatlar munosabatidan kelib chiqib tarjimalar sifati to'g'risida xulosalar chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, o'sha yillarda ko'pchilik tadqiqodchilarning e'tiborini o'ziga tortgan tarjimashunoslikning tilshunoslik yo'nalishi ahamiyatini also kamsitmaydi. Bu yo'nalish, aksincha, hozirgi paytda "tarjima lingvistikasi" deb nomlanayotgan tarjimaning tilshunoslik tadqiqining vujudga kelishi uchun katta turtki bo'ldi va uning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Tadqiqotda tarjima matni mazmunining kommunikativ xususiyatlari hamda uning tarkibida temporallik ma'nolarining tarjima qilinishi holatlarini tadqiq etish maqsadi ko'zlanmoqda. Badiiy tarjimada temporallik muammosi eng avvalo tarjima lingvistikasi muammosi bo'lib, bitiruv malakaviy ishimizda temporallikning badiiy tarjimada qay darajada saqlanishini o'rganish, hamda hozirgi kungacha qilingan tarjima

asarlarida temporallik qanday me'yorlarga ko'ra saqlanganligi ustida ish olib boramiz.

Bitiruv malakaviy ishida o'z oldimizga qo'ygan vazifamiz badiiy, ilmiy matnlar va ular tarjimasida temporallikni saqlash masalasini obdon ko'rib chiqish, hamda tadqiqot nazariyasini badiiy tarjima asosida tahlil qilishdan iborat. Ushbu bitiruv malakaviy ish atoqli ingliz yozuvchisi bo'lmish Mark Tvenning "Yanki va qirol Artur" romani tarjimasida temporallik kategoriyasining qay darajada saqlanganligi tahliliga bag'ishlanadi.

Bitiruv malakaviy ishning o'z oldiga qo'ygan eng oily maqsadi oldimizga qo'yilgan vazifadan kelib chiqadi, maqsadimiz badiiy tarjima atalmish ijodiy jarayonda duch kelinadigan eng asosiy muammolardan sanalmish temporallikni saqlash masalasini tadqiq etish, uni badiiy tarjima asosida tahlil qilishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda badiiy, grammatik va muallif zamon, hamda ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyalarining qiyosiy o'rganishni, shu yo'sinda o'zbek tarjimonlarining shu paytgacha bilvosita tarjima qilgan asarlarini yanada puxta o'rganib chiqib, kamchilik va yutuqlarini izlab topib, bevosita va bilvosita qilingan tarjimalar o'rtasidagi farqini o'rganib, kamchiliklarini ko'rsatib berib, kelgusi tarjimalarda bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun tarjimonlarga bu haqida ma'lumot berishni tadqiqot ishi o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Tadqiqot ishining obyekti va predmeti. Tadqiqot ishimiz obyekti bo'lib ingliz qalamkashlari Ernest Xemenguey, Mark Tven, Charlz Dikkens asarlarida va ular tarjimalari namunalaridir. Tahlil qilinayotgan matnlar umumiy soni 50 dan ortiq bo'lib, asosiy e'tibor tanlangan matnlar mazmunining temporallik mohiyatiga qaratilgan. Tadqiqot predmeti esa bilvosita qilingan tarjimada temporallik tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Bitiruv malakaviy ishimizni bajarishda nazariy va amaliy tilshunoslikning asosiy tadqiqot metodlari: qiyoslash, taqqoslash va nazariy xulosalarga kelish metodidan foydalandik. Tadqiqotning metodologik asosini Z. Y. Turaeva, A.V. Bondarko, J. Buronov, V. P. Kazaryan, A. P. Levich, A. A. Degterova, D. R. Gilfanova, G. Ahmedova, S. A. Xomyakov, I. N.

Xaydarova, J. T. Freyzer kabi mashhur tilshunoslarning tadqiqotlarida o'rganib chiqilgan fe'l va fe'l zamonlari bo'yicha boy teoretik baza tashkil etadi.

Tilni bir butun murakkab sistema sifatida o'rganish hozirgi zamon fanining barcha talablariga javob bera oladigan yangi ilmiy metodlarning yaratilishini taqozo qiladi. Shunday qilib, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri uning yashashi rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek jamiyat bilan o'ladi ham. Demak, borliqda har qanday narsa va hodisa tilda o'z aksini topishini unutmaslik lozim, lekin tarjima jarayonida turli vositalar bilan metodlar beriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimizda ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning zamon kategoriyasi hamda matn temporalligining tarjimada berilishi, qay darajada saqlanishi to'g'risidagi nazariyalarni birlashtirishga, shu yo'l bilan tarjimashunoslik ilmida badiiy tarjima matnida temporallik nazariyasini rivojlantirishga bir muncha hissa qo'shdik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Badiiy tarjima matnida temporallik mavzusini yoritib bergan ushbu bitiruv malakaviy ishimizda tarjima jarayonida matn temporalligi, fe'lning grammatik va matnning badiiy zamon xususiyatlariga oid muammolarga duch kelayotgan bo'lajak tarjimon talabalarga nazariy va amaliy material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kelgusida oliy o'quv yurtlari, akademik litsey, kasb- hunar kollejlari, o'rta umumta'lim maktablari talaba va o'quvchilarining erkin asar tarjima qilish jarayonida nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi muqaddima, ikki bob, besh paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib 66 betni tashkil etdi.

I BOB. BADIY ASARDA TEMPORALLIK TUSHUNCHASI

1.1. Temporallikning ifodalanish usullari

Temporallik atamasi lotin tilidagi “*tempus*” so’zidan olingan bo’lib, *vaqt, zamon, payt, fursat, dam, on* kabi ma’noni anglatadi. Bu atama fan olamiga yangi kirib kelgan bo’lib, atamalar izohli lug’atida uchramaydi. Falsafa fanlarida zamon muammosini tadqiq etishga qaratilgan alohida o’ziga xos yo’nalish shakllangan bo’lib, bu yo’nalish “temporalistika” nomini olgan. Zamon tushunchasi ostida biz fizik vaqt, tarixiy davr, biologik, geologik era, ijtimoiy-gumanitar zamon, siyosiy davr, ish vaqti, bo’sh vaqt kabi tushunchalarni anglashimiz mumkin.

V. N. Sadovskiy muharrirligi ostida chop etilgan “Zamonaviy G’arb falsafasi” («Современная западная философия») lug’atida esa temporallik tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan. “Temporallik (ingliz tilidan *tempora* - vaqt, zamon xususiyatlari) - hodisaning zamon mohiyati, u vaqtning o'ziga xos harakat dinamikasidan paydo bo'lib, u ushbu hodisaning tarixiy, fazoviy, biologik, fizik va boshqa vaqt koordinatalarini harakatga keltiruvchi munosabatlar bilan belgilanuvchi vaqt xarakteristikasidan farq qiladi. Hozirgi zamon falsafiy madaniyatiga temporallik tushunchasi real vaqtga nisbatan moddiyliklar qarama qarshi qo'yiladigan ekzistensiallik (mavjudlilik) an'anasi orqali kirib kelgan. Fenomenologiyaga yo'naltirilgan jamiyatshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslikda temporallik tushunchasi shaxsiyat, sotsial guruh, sinf, jamiyat, qadriyat kabi dinamik obyektlarni ifodalash uchun keng qo'llaniladi . O'zaro harakatga keluvchi sotsial hodisalarning temporalligini qiyoslash orqali analiz qilish g'oyasi temporal analiz metodologiyasi asosini tashkil etdi.”

Qiasqa qilib aytganda temporallik bu vaqt kengligi. Albatta, bu bir oz noodatiy tuyuladi, chunki "vaqt o'lchami" to'g'risida so'z yuritishdan ko'ra obyektlarning kengligi, ularning geometrik o'lchami to'g'risida gapirish osonroq.

Temporallik yoki obyektning temporal o'lchami bu uning xarakteristikasi kabi uning bo'shliqdagi o'lchamidir. Umumiyroq qilib aytganda temporallik tanaffus bo'lib, bunday tanaffus vaqtida obyekt (jarayon, organizm, harakat)ning

o'ziga xosliklari mufassal tasvirlanadi. An'anaviy lug'atda temporallik tushunchasiga yaqinroq bo'lgan quyidagicha izoh beriladi: "jarayonning o'ziga xos fursati". Temporallik o'z navbatida vaqt birliklari bilan belgilanmaydi.

Tarix, madaniyat, xalqlar turmushi, har qanday millat ongi o'z aksini milliy tilda topadi. Masalan tinchlik tushunchasida zamon va makon til yordamida lug'aviy birliklar orqali aks etadi. Temporallik kategoriyasi ustida hozirgacha ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan bo'lib, biz temporallikning ko'plab shakl va xususiyatlarini qozoq olimlari A. Baytursinuli, K. Jubanov, I. Mamanov, M. Balakaev, T. Kordabaev, A. Toleuov, A. Kaydar, N. Oralbay, Z. Kuzekova, va boshqalar tadqiqot ishlarida kuzatamiz. Ammo, temporallik kategoriyasi termini faqatgina Z.S. Kuzekova asarida uchraydi, qolganlarida esa vaqt, grammatik zamon formalari, fe'l ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Rus tilshunosligida esa A. V. Bondarko, I. R. Galperin, E. I. Shendels, Z. Ya. Turaeva, G. A. Zolotova, I. O. Moskalska, Z. K. Axmetjanova, N. G. Shaymerdinova va boshqalar asarlarida temporallik muammosi va uning funksional-semantik maydoni ko'rib chiqiladi. Ko'p hollarda bunday asarlarda temporallik butun bir tizim sifatida emas balki, alohida olingan ichki shakllar, leksik, morfologik va sintaktik ko'rinishlar sifatida o'rganiladi. Temporallik kategoriyasi mohiyati nafaqat morfologik jihatdan balki butun til tarkibidagi aspekt sifatida ham e'tirof etiladi. Temporallik bu, funksional-semantik kategoriya bo'lib, vaqtning fizik va falsafiy aspektlarini ifoda etadi va u grammatik, leksik va saralab olingan vositalar kabi turli til vositalari yordamida vujudga keladi. Bunda temporallik yadrosi bo'lib grammatik zamon xizmat qiladi, ya'ni, temporallikni ifodalovchi bu zamon kategoriyasining grammatik shakllaridir. Umuman olganda tilshunoslikda bu hodisa tekshiruv obyekti sifatida so'nggi yillardagina temporallik termini ostida o'rganila boloshlandi. Rus tilshunosligida temporallik kategoriyasi xususida A.V. Bondarkoning ko'plab asarlari va ilmiy maqolalari chop etilgan bo'lsada bu muammo to'liq o'rganilmay qolaverdi. Shu sabab bo'lsa kerak, ko'pgina olimlar temporallikga sof badiiy zamon sifatida qaraydilar.

Temporallik hodisasi (shu bilan birga zamon kategoriyasi) uchun falsafiy va fizik obyektiv vaqt miqdori, hamda tabiat hodisalari zamon hisobini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Bu subyektiv shakldagi so'zlovchi nutqining har qanday bo'lagida aks etadi, ya'ni, tilda grammatik formada nozir bo'ladi. E. D. Suleymanova fikricha temporallik kategoriyasi ancha keng aspektga ega. A. V. Bondarko xulosasiga ko'ra esa temporallik - funksional-semantik tizim, unga grammatik zamon kategoriyasi va sintaktik strukturalar bilan bir qatorda ko'plab leksik birikmalar ham kiradi. "Temporallik kategoriyasi ikki tomonlama, temporal semantika va uning tilda aks ettiruvchi turli tenglikdagi vositalar birikuvi, yoki funksional-semantik kategoriya sanaladi". Bu muammoga oid tadqiqotlar sanoqli bo'lganligi sababli ko'pgina tilshunoslar uning badiiy zamon va zamon munosabatlari xususiyatlarini tadqiq etish bilan chegaralanmoqdalar. Ammo temporallikni ilmiy tekshirish unga shunchaki yuzaki munosabat bildirish emas balki badiiy zamonning tarkibiy tuzilishini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Temporallik kategoriyasida matn tarkibiy qismi zamon o'qi bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Temporallik bu zamon sinonimikasidir. Ya'ni badiiy asarda zamonning turli ko'rinishlari teng munosabatga kirishadi. Temporallik badiiy matnda turlicha ifodalanadi. Bu badiiy zamon, predikatning grammatik zamon shakli hamda muallif zamoni bo'lishi mumkin. Tarjima til bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa, til va tarjimani ayri holda tasavvur etish mushkul. Tarjima, G'aybullas-Salom ta'kidlaganidek, tilshunoslikning tadqiqot obyekti sanaladi. Tarjimaning temporallik maydoni deganda biz eng avvalo tilning funksional birligi bo'lmish predikatning temporallik kategoriyasiga alohida urg'u berishimiz lozim. Chunki vaqt faqatgina harakat bo'lgan joyda nozir bo'ladi. Predikatning asosiy funksiyasi ish-harakatni ifodalashdan iboratdir.

Ma'lum bir davrda yaratilgan badiiy asar o'zining boqiy umri davomida o'sha davr epoxasini saqlab qoladi. Chunki badiiy asar qaysi davrda yaratilgan bo'lsa u o'sha davr hayoti, muhiti, turmush tarzi, ma'naviy, madaniy, marifiy, siyosiy, ijtimoiy muhitini o'zida saqlab turadi, asar o'sha davr adabiy muhiti va qonunlari bilan uzviy aloqador bo'ladi. Bu badiiy asarning leksikasi,

grammatikasida aks etadi. Chunki til hamisha harakatda, o'sishda bo'ladi. Tilni erta bahorda ekilgan urug'ga o'xshatish mumkin. Uzoq parvarishdan so'ng u o'sib chiqadi va kech kuzga qadar turli o'zgarishlarga uchraydi. Ammo unda bo'layotgan ichki o'zgarishlarni bir marta qaraganda ilg'ab bo'lmaydi. Siz uni bahordagi holati bilan yoz va kuzdagi holatini kuzatsangiz, unda qanday o'zgarishlar ro'y berganligini darhol anglaysiz. Til ham qadim zamonlarda yer yuzida eng dono zot bo'lgan insonga yaratgan tomonidan hadya etilgan ne'matdir. U asrlar o'tishi bilan sayqallanib boradi. Til jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi aloqa vositasidir. Til va jamiyat bir-biriga ta'sir qilib turadigan, birining rivojiga ikkinchisi hissa qo'shadigan hodisalar bo'lganligi uchun jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlar tezlik bilan tilda ham aks etadi. O'zimizning ona tilimiz sanalmish o'zbek tilimiz ham o'z tarixiy hayoti davomida to'rtta rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Tilda iste'moldan chiqqan so'zlar, arxaik so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar ham bo'lishi mumkin. Yoki uning grammatik tuzilmasi boshqa oilaga mansub tillar ta'siri natijasi o'laroq tubdan o'zgarib ketgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Bunday o'zgarishlarning barchasi o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu bir kunlik hodisa emas. U vaqt talab etadi, joiz bo'lsa asrlar, mingyilliklar talab etadi. Tildagi barcha o'zgarishlar keyingi davr avlodlariga yozma manbalar orqali yetib keladi. Shunday ekan bunday yozma manbalardan bo'lgan badiiy adabiyot namunalari she'rlar, balladalar, romanlar, qissa-yu, hikoyalar, ertaklar tildagi barcha o'zgarishlarni o'zlarida mujassam etadilar.

Asar o'zida ijodiy individuallik xususiyatlarini tashiydi, shunday ekan badiiy asar tarjimasiga bel bog'lagan tarjimon quyidagi asosiy uch muammoga duch kelishi tayin: matnning zamon xususiyatlarini tarjima qilish, adabiy yo'nalish xususiyatlarini uzatish, asar muallifining individual uslubini o'quvchiga yetkazish.

Zamonlar o'rtasidagi masofa. Tarjima asarni mutolaa qilgan o'quvchi o'zini muallif zamondoshidek his etgani maqulmi yoki tarjima zamonaviylashgan bo'lsinmi? Oddiygina mutolaadan olingan taasurotlar tengligi qonuniyatiga asoslangan holda, tarjimaning zamonaviy texnologiyasi tarjima zamonaviylashuvini tan olmaydi. Ya'ni o'quvchining asliyat mutolaasidan olgan

taasurotlari, tarjima asardan olgan taasurotlari bilan teng, o'xshash bo'lishi lozim. Ammo bu tarjimaning asliyatning asl nusxasi bo'lishi kerak degani emas. Badiiy tarjimaga ijodkorona yondashgan holda tarjimon badiiy asarni boshqa til vositasida qaytadan yaratadi.

1.2. Badiiy matnda temprallik tushunchasi

Badiiy adabiyot inson ongi va his-tuyg'ularining mahsulidir. Badiiy adabiyotning markazida inson atalmish tabiat mo'jizasi, kurrai zamindagi eng oqil, eng komil zot turadi, shu sabab bunday san'at turini insonshunoslik deb atasak zinhor adashmaymiz. Badiiy adabiyot inson ruhiy olamini, uning o'y-fikrlarini, kechinmalarini aks ettiradi. Bu kechinmalar jonli obrazlar orqali gavdalanadi.

Badiiy matnda temporallik tushunchasi haqida gap ketganda eng avvalo badiiy matnning o'zi nima, degan savol tug'ildi. Matnning bir necha tariflari mavjud. "*Matn*" atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan *tekst* so'zi anglatgan ma'noga tengligi ishora qilinadi. Ayni lug'atda tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosmadan chiqqan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi matndir. Masalan: *maqolaning teksti*.
2. Musiqa asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.
3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.

Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi tahrirdagi izohli lug'atda ham yuqoridagi ta'kid saqlangan: matn [arabcha – yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst].

1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat.
2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi.

Matnshunos olimlardan biri L. Loseva matnning quyidagi uch belgisini ko'rsatib o'tadi:

1. Matn – bu, yozma shakldagi axborot;

2. Matn mazmuniy va strukturaviy tugal ko'rinishga ega;
3. Matnda muallifning taqdim etilayotgan axborotga munosabati o'z aksini topadi (muallif yondashuvi).

Matn lisoniy kommunikativ, mazmuniy xususiyatlarga ega birlikdir. Matn tugallik va yaxlitlik xususiyatlariga ega. U mantiqiy-semantik munosabatlarini ta'minlovchi kogerentlik, kommunikativ maqsadning ifodalanishi hamda informativlik (axborotning muhimligi yoki yangilik darajasi) kabi kategorial ko'rsatkichlarga asoslanadi. Matn – axborot almashish birligi va u asosan shu vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari jahon tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida “*dikurs*” termini ham bot-bot qo'llanadi. Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yoq. Dastlab “*diskurs*” va “*matn*” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyin “*matn*” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “*diskurs*” esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha *discours* – “nutq”, “so'zlash” demakdir.

Xulosa qilib aytganda, matn til sintaktik sathining oily darajasidagi birlik bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunlikdir.

Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra **ilmiy matn** (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy, nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi.

Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qay birining – kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi – yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, ya'ni **badiiy matn** va **nobadiiy matn**. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa

yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad-mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish maqul. “Badiiy matnda badiiy adabiyotning barcha janriy rang-barangligi aks etadi. Unda hissiyot va estetik diʼ hukmron boʻlib bayon shakli katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyotda voqelikni mantiqiy idrok etishdan koʻra, badiiy va hissiy-emotsional qabul qilish kuchliroq. Mazmunning qanday shaklda va qay tarzda bayon qilinishiga qarab, asarning oʻquvchiga koʻrsatadigan hissiy taʼsiri va estetik qimmati yuqori boʻladi.” [30] Badiiy matnda muallif oʻquvchiga turli til vositalari yordamida badiiy zavqni yetkazadi. Badiiy matnda yozuvchi asarning mavzusi, mazmun-mohiyati va personajlarning xarakteriga qarab soʻz va ibora tanlaydi, sintaktik qurilish, leksik grammatik, semantik usullardan unumli foydalanadi. Matnda adabiy til normalari bilan bir qatorda jonli (soʻzlashuv) til imkoniyatlari ham baravar qoʻllaniladi. Hatto personaj tilini induviduallashtirish uchun jargon iboralar ham ishlatiladi.

Matn koʻp qirrali, murakkab mundarijaga ega. Har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat boʻladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi yoki matnni boʻlaklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblashi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Bir qarashda, matn birliklarini belgilash u qadar ham murakkab muammo emasdek tuyuladi. Ammo aslida unday emas, shuning uchun ham matn lingvistikasi tadqiqotchilari orasida juda koʻp va bir-biridan farqli, munozarali qarashlar mavjud. Masalan I. R. Galperin gapni matn birligi boʻla olmasligini taʼkidlaydi. Tilshunos fikricha, bir necha gapni oʻzida birlashtiradigan yirik butunlik – frazadan katta butunlik matnning birligi boʻla oladi. Frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi boʻlgan gap bir paytning oʻzida matnning ham birligi boʻla olmasligini aytadi.

Koʻpchilik tilshunoslar esa gapni matnning asosiy shakllantiruvchi unsuri ekanligini taʼkidlashadi. Aslida ham matnning mazmuniy tarkibini, bu mazmunning obʼyektiv olam bilan nisbatlanishini, demakki, toʻgʻri anglanishini gapsiz tasavvur etish mushkul. Shunga koʻra gapning matn sistemasidagi oʻrnini, ayniqsa uning matn hosil qilish imkoniyatini also inkor etib boʻlmaydi. Matnda

gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi.

Bizni o'rab turgan borliqda real vaqt hukmronlik qiladi. Badiiy asar mutolaa qilayotgan o'quvchida, badiiy asar insonlar hayotidan olingan bo'lib, obyektiv, real zamon ifodasidir, qabilidagi mushohada tug'iladi. Ha, badiiy asar inson hayotini tasvirlaydi, ammo unda kas etgan badiiy zamonning nazariy mohiyatini o'rganib chiqqach, yuqoridagi mushohada qanchalik xato ekanligini anglaydi. Quyida real va badiiy zamonlar o'rtasidagi tafovutni atroflicha o'rganib chiqishga harakat qilamiz.

Har qanday matndagi zamon va makon birliklari o'rtasidagi munosabat zich aloqada bo'ladi, chunki har qanday voqea ma'lum zamon va makonda yuz beradi. Zamon va makonda yuz beradigan voqealar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) temporal semantik guruh;
- 2) lokal semantik guruh.

Temporal munosabat tilshunoslikda leksik, morfologik, sintaktik sath birliklarida turli darajada o'rganilgan. Ikki gap o'rtasidagi mazmuniy temporal munosabat bir-biriga bog'liq holda yuzaga keladi.

Lokal munosabati ham quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) harakat, xususiyatning vujudga kelish o'rni munosabati:

*She had stopped **at a shop**, over which was written, Krook, Rag and Warehuse[21; 57];*

- b) harakat, xususiyatning boshlanish o'rni munosabati;

- d) harakat, xususiyatning yo'nalish o'rni munosabati:

*Jack went **to his corner** walking that funny jerky way and we got him down through the ropes and through the reporters' tables and out down the aisle [27; 145b].*

Temporallik kategoriyasi badiiy matn mazmunini shakllanishida muhim

o'rin tutadi. Matn referentiv modalligining eng asosiy qismlaridan birini temporallik semantikasi tashkil qiladi. Matn mazmuni va mundarijaviy tuzilishini tahlil etish muammosi, so'zsiz, matn mazmunida temporallik yoki zamon kategoriyasining tutgan o'rnini aniqlash masalasini ham muhokama etishni talab qiladi. Tadqiqotchilar allaqachon bu masalaga e'tibor qaratishib, temporal yaxlitlikning matn tuzilishining muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligini qayd etishgan. Ammo matnning temporal strukturasiga oid ma'lumotlar hozircha kam miqdorda va ular matn mazmuniy mundarijasining shakllanishida zamon ko'rsatkichlarining o'ri haqida to'liq fikr-xulosaga kelish uchun yetarli emas. Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog'lash matnning temporal xususiyatlaridan, temporal funksiyasidan kelib chiqadi. Zamon yaxlitligi matn tuzilishining muhim ko'rsatkichlaridan biri, zero, matn mazmuniy mundarijasi temporal ko'rsatkichlar zohirlanishini talab qiladi va ushbu ko'rsatkichlarsiz biror bir kommunikativ maqsadning aniq ifodalanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga nisbatan zamon kategoriyasini muloqot birliklarining kommunikativ mazmunini shakllantiruvchi asosiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etish lozim. Badiiy asardagi hodisalar muayyan vaqt asosida ro'yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. "Vaqt ma'noli leksemalar matn qismlarining distatnt (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bilvosita) bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so'zlar leksik grammatik bog'lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi [9; 24b]". L. A. Nozdrina "matn aktualizatorlari" deb nom olgan tushuncha haqida to'xtalib o'tadi. Tilshunos fikricha matnning asosiy aktualizatorlari badiiy matnni matn orti voqeligi bilan o'zaro munosabatga kirishishga turtki bo'ladi. Va ular quyidagilardir: temporallik, lokallik, personallik, referentlik, modallik va boshqalardir. Ushbu kategoriyalar asosida matn tipologik xarakteristikasini bunyod etishda xizmat qiluvchi til vositalari bo'lmish morfologik, leksik, sintaktik va so'z yasovchilarning o'zaro munosabati yotadi. Matning ushbu asosiy aktualizatorlari matnning o'ziga xos semantik tarkibi hisoblanadi.

Zamon va makon har qanday ijtimoiy-madaniy tuzilma uchun muhim bo'lgan konseptlardir. Biri ikkinchisini taqozo etadigan ushbu konseptlarning bir-biridan farqi shundaki, makon – uch o'lchovli hodisa bo'lsa, zamonning o'lchovi yagonadir: u o'tgan davrni orqada qoldirib, kelajak sari harakat qiladi. Makon bir paytda mavjud bo'lgan obyektlarning joylashish tartibidir, zamon esa birin-ketin sodir bo'layotgan hodisalarning ketma-ketligidir.

Badiiy matnlarda temporallik muammosini hal qilish uchun dastlab grammatik tizim hodisalaridan biri sifatida qaralib kelinayotgan zamon kategoriyasining matn mazmuniy tuzilishidagi mohiyatini aniqlash lozim bo'lsa, keyingi o'rinda ushbu kategoriyaning turli kommunikativ maqsadlarni ko'zlaydigan nutqiy tuzilmalar tarkibida namoyon bo'ladigan xususiyatlarini o'rganish talab etiladi[11; 31b]. Ammo, zamon kategoriyasi o'zining turli tarixiy, falsafiy va tilga oid kommunikativ aspektlarida eng avvalo badiiy ijod tabiati bilan bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, badiiy matnda badiiy zamon kategoriyasiga ham alohida to'xtalib o'tish ayni muddao bo'lar edi. Badiiy zamon tushunchasini anglash uchun badiiy ijodning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalamiz. Bu xususiyatlar ostida badiiy voqelik yotadi. Badiiy voqelik (badiiy tasavvur vositasida yaratilgan voqelik) asosi obyektiv voqelikning (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasa-da) murakkab aksidir[20;14b]. Badiiy zamon tarixiy davr (zamon)dan butunlay farq qiladi. Tarixiy davr muallifning falsafiy mulohaza obyekti bo'lishi mumkin xolos. Muallif asarida hamisha harakatda bo'lgan insoniyatning tarixiy bosqichlarni o'quvchiga o'tmishdan olgan mulohazalari xulosasi sifatida, o'zicha sintez qilgan holda yetkazadi.

Faylasuflar fikriga ko'ra zamon – bu, materiya borlig'ining obyektiv-real shaklidir. Materiya kishi ongidan tashqarida va unga bogliq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan obyektiv reallik bo'lib, u harakatda namoyon bo'ladi, harakat esa zamonning asosiy mohiyati sanaladi. Badiiy voqelikni zamon munosabatlaridan tashqarida shakllantirish mumkin emas. Badiiy zamon – zamon muammolariga nazar emas, balki badiiy asarda aks etgan zamonning o'zi [20;14]. Badiiy matnni biz syujet tarkib topgan hodisalar zamoni, ya'ni syujet zamoni (сюжетное время)

qabilida tushunmog'imiz kerak. Materiyada obyektiv reallik benihoya mo'l turli tuman obyektlardan iborat. Real vaqt esa ushbu obyektlarning alohida zamonlaridan tashkil topgan. Har bir personaj, real voqelikdagi har bir obyekt kabi o'z individual zamoniga ega. Badiiy zamon –bu, bir qancha individual zamonlar va alohida olingan (xususiy va individual) zamonlar o'rtasida zamon tobeligini o'rnatish demakdir[20; 15b].

Badiiy zamon, har qanday zamon kabi, o'zining ma'lum muddatiga ega. Bu asar asosi qamrab olgan voqea hodisaning vaqt miqdori hisoblanadi. Asarda tasvirlanayotgan hodisalar muddatti turli ko'lamda, hatto bir nechta avlodlar hayoti davrlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin.

Badiiy zamon – bu, muallif, o'quvchi va personaj idrokining murakkab bog'liqligidir. Badiiy asarda keltirilgan ma'lum bir zamonda bo'lib o'tgan voqealar, tarixiy xronologik voqealar bilan mos kelmaydi. Misol qilib, V. Shklovskiyning "Tetiva" asarini keltirish mumkin. V. Shklovskiy buyuk rus shoiri A. S. Pushkinning "Kapitan qizi" ("Капитанская дочка") asaridagi voqealar xronologiyasi, voqealar zamoni ketma ketligini kuzatib, asar qahramoni Andrey Grinevga yozuvchi asar boshida 17 yosh berganini ko'radi. Ammo, asar o'rtalarida voqealar rivoji yozuvchidan Grinevlar oilasi tarixini yoritishni talab etganda, Andreyga 10 yosh beradi. V. Shklovskiy buni kompozitsion ya'ni badiiy zamon real zamondan tubdan farq qilib, tarixiy xronologiya bo'yicha o'tmishdan kelajakka tomon bormasligidan, deb tushuntiradi.

Badiiy zamonning invariant xususiyatlari haqida so'z yuritganda, uning faqatgina real (obyektiv) zamon xususiyatlari bilan chegaralanish maqsadga muvofiq emas. Perseptual zamon xususiyatlarini ham hisobga olish ayni muddao bo'lar edi. Obyektiv zamon tashqi olamning obyektiv borliq sohasiga doir bo'lsa, perseptual zamon – real borliqning alohida shaxs tomonidan idrok etilishidir. Perseptual zamonni emotiv zamon deb ham atash mumkin, chunki real borliqqa bo'lgan munosabat inson ongida ko'p hollarda his-hayajon, emotsiyalar ko'rinishida ayon bo'ladi. Perseptual zamonning o'ziga xos sifatlari badiiy va grammatik zamon tabiatining mohiyatini anglashga yordam beradi.

Real vaqt bilan badiiy zamonning farqli xususiyatlaridan biri shundaki, real vaqt bir ko'lamli boladi, badiiy zamon esa ko'pqirralilik xususiyatiga ega. Real zamon vaqt o'qidan chiqib bitta koordinata yo'nalishi bo'yicha harakatlanadi. Badiiy zamon esa ham bir ko'lamli (Masalan, E. Xemingueyning "Yomg'irda qolgan mushuk", K. Mensfildning "Olti penslik tanga"), yoki ko'p ko'lamli bo'lishi mumkin. Badiiy zamonning ko'p qirraliligi shundan iboratki, badiiy asarda voqealar bir nechta joyda, turli vaqtlarda parallel sodir bo'lishi mumkin. Misol qilib M. Bulgakovning "Usta va Margarita" asaridagi Pontiy va Pilat obrazlarini olish mumkin. Voqealar XX asrning 20 -30 yillarida Moskvada bo'lib o'tadi.

Obyektiv zamonning yana bir jihati shuki, u olg'a harakatlanish xususiyatiga ega. Vaqt turg'un emas, u doim harakatda. Bu obyektiv vaqtning eng ko'zga ko'ringan xususiyatlaridan biridir. Harakat materiya mavjudligining asosi sanaladi. Zamon va makon harakatga ega bo'lmagan materiyada mavjud bo'lmaydi. Real, fizik vaqt hech qachon to'xtab qolmaydi. Badiiy zamon esa yozuvchi qalami yordamida to'xtatib qo'yilishi mumkin. Badiiy asarda vaqt to'xtab qolsa voqealar rivoji soviy boshlaydi. Falsafa nuqtai nazaridan bu paradoksal hodisa hisoblanadi. Davomiylik va izchillik to'xtab qolganda, zamon ham o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi. Badiiy matnda zamon sustlshishi, yoki butunlay to'xtab qolishi mumkin. Masalan, ertalab uyqudan uyg'ongach, tasavvurimizcha uyquga ketganimizdan uyg'ongunimizcha bir soniya o'tgandek tuyiladi. Ammo tasavvurdagi bir soniya uzun tun ekanligini payqamaydi kishi.

Turli vazifaviy uslublarga, janrlarga oid matnlarda temporallik mazmunini ifodalash imkoniyati turlicha bo'lib, ular orasidagi farq matn mazmunidan anglashilib turadi. Tilning nominativ va semantik aspektlarida muhim o'ringa ega bo'lgan temporallik kategoriyasi badiiy matnda muhim stilistik, kommunikativ, pragmatik vazifalarni bajaradi. Badiiy matnlarda temporallik, asarni yaratishdan ko'zlangan kommunikativ-ekspressiv mazmunni shakllantirish, badiiy obrazlilikni ta'minlash uchun xizmat qilad. Temporallik uslubdagi matnlarning lisoniy va badiiy yaxlitligin, ularning axborot yetkazish qobiliyatini ta'minlovchi vositalardandir. Ayni paytda, matnga xos ushbu kategoriya matn qismlari va

ularning tarkibiy birligi bo'lgan gap sutrukturasini shakllantirish vazifasini ham o'taydi. Ammo badiiy matnga xos bo'lgan temporallik hodisasining mohiyati gap tuzilishi sathida namoyon bo'ladigan zamon kategoriyasi mohiyati va maqomidan o'ziga xos xususiyatlari va boshqa ko'p jihatlar bilan tubdan farq qiladi. Matnda zamon kategoriyasi ma'no xususiyatlarini faqatgina fe'lning grammatik zamon shakllari bilan bog'lash ushbu kategoriya maqomini tor ma'noda belgilash, uning funksional semantik mohiyatini chegaralab qo'yishga olib kelishi mumkin. Badiiy zamon matnning asosan ma'no xususiyatlaridan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi, grammatik zamon esa uning shakliiy tuzilishi asosi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan bu ikkala birlikning qo'llanish shart-sharoitlari va shu sharoitda yuzaga keladigan shakl va mazmun munosabatlarini ham e'tiborga olish muhimdir. Yo. Tojiyev takidlaganidek: "... tilshunoslikda yo mazmunga, yo shaklga qarab ish tutib bo'lmaydi. Qaysi bir tomonga kuchayib ketsa, bir yoqlamalilik va jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi. Mazmunni shakldan ajratib bo'lmaydi"[19; 50b]. Tub ma'nodagi matnning ma'no munosabatlari ma'lum kontekstda, matnda namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligining eng yirik vakillaridan biri Ayub G'ulomov ta'kidlaganidek: "... har bir harakat, tabiiy, zamon ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi: harakat bilan subyekt orasidagi munosabat zamon-vaqt bilan aloqador. Vaqt bilan bo'lgan bu bog'lanish fe'lning zamon kategoriyasi orqali ifodalanadi [12;51b]". Harakatning bajarilishi, voqeaning sodir bo'lish paytini (taxminan bo'lsa ham) xabar qilmay turib, retsipientning ushbu xabar mazmunini anglashini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli harakat, xabar zamoni matn referensiyasida muhim o'rin egallaydi, temporallik semantikasi matnda voqealarning xronologik tartibi, ularning zamon munosabatlarining ifodasidir. Badiiy matnda zamon maydoni negizida fe'l shakllari turadi, chunki retsipientga yetkazilayotgan matndagi xabar ish- harakatdan iboratdir. Matnda ishtirok etuvchi qolgan lisoniy birliklar esa asosan ifodalanayotgan temporallik semantikasini aniqlashtirish lozim bo'lganda, qat'iylashtirish vazifasini ado etadi. Matnda zamon shakllari va boshqa vositalarning qo'llanishi ma'lum bir pragmatik maqsad ifodasi uchun xizmat etadi.

Zamonning deysisi ya'ni ko'rsatish funksiyasining tayanch nuqtasi *“men – hozir – shu yerda”* bo'lishi shart. Ya'ni, harakat ma'lum subyektning (*“men”*) ma'lum makondagi (*“shu yerda”*) faoliyati natijasidir va bu harakatning sodir bo'lish davri nutqiy faoliyat bajarilayotgan lahzaga (*“hozir”*) nisbatan belgilanadi. Grammatik zamon kategoriyasi uchun asosiy tushuncha *“nutq so'zlanayotgan payt”* concepti sanaladi.

Ingliz tilshunosligida grammatik zamon kategoriyasiga xos shakllar tizimli ravishda batafsil o'rganilgan hamda ularning kontekst bilan bog'liq ma'nolari aniqlanib, ma'lum turlarga ajralish xususiyatlari batafsil tadqiq etigan. Ingliz tilida fe'lining zamon kategoriyasini ifodalash uchun *tense* iborasi qo'llaniladi. Bu ibora lotin tilidagi *tempus* so'zidan olingan bo'lib, *zamon*, *vaqt* kabi ma'nolarni anglatadi. Fe'ning eng sodda funksiyalaridan biri bu grammatik zamnonni bevosita ifodalash hisoblanadi. Tilshunos U. S. Maslov ta'kidlaganidek: *“Fe'l aniq vaqt mobaynida sodir bo'lgan ish harakat yoki holatni ifodalash uchun xizmat qiladi”*. Fe'l ifodalagan ish-harakatning paytga munosabati fe'ning grammatik zamonlari deyiladi. Fe'ning uchta zamon formasi va bir nechta aspektlari mavjud. Fe'l aspekti voqea hodisaning *qay tarzda? Qanday? (how?)* bajarilganligini belgilasa, fe'ning zamon shakllari ish-harakatning *qachon?(when?)* bajarilganligini ko'rsatadi. Ingliz tilida fe'ning quyidagi zamon shakllari mavjud:

1. Present Tense (Hozirgi zamon)
2. Past Tense (O'tgan zamon)
3. Future Tense (Kelasi zamon)

Present Tense yani hozirgi zamon nutq so'zlanib turgan vaqtda odatiy, takroriy sodir bo'ladigan, sodir bo'layotgan, yoki tugallangan ish harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Fe'ning ushbu zamon formasi badiiy matnda personajlar nutqi, dialogida qo'llaniladi.

“Can't you sleep, Signor Tenente?” he asked.

“No.”

“I can't sleep, either.”

“What's the matter?”

“I don’t know, I can’t sleep.”

“You feel all right?”

“Sure. I feel good. I just can’t sleep.”

“You want to talk a while?” I asked.

“Sure. What can you talk about in this damn place?”

“This place is pretty good,” I said [26; 95b].

Zamonning badiiy asarlardagi o'zgaruvchan manzarasi tasviri va bu jarayonda ishtirok etuvchi til vositalarini o'rganish hozirgi zamon tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmining o'ziga xos “g'aroyib” muammolaridan sanaladi. Ammo tilshunos va adabiyotshunoslarning bu muammoga bo'lgan qiziqishi so'nggi yigirma yillardagina aniq ko'zga tashlana boshladi. Zamon kategoriyasining turli xil, tarixiy, falsafiy, tilga oid aspektlari badiiy ijod tabiati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Temporallik mohiyatini anglash uchun badiiy asar yoki matnda zamon qanday tasvirlanyotganini, qay tarzda anglashilayotgani-yu tushunilayotgani aniqlab olish zarur. Real hayotda zamon bu obyektiv vaqtdir; real vaqt doim harakatda va u o'tmishdan kelajakka qarab olg'a harakatlanadi. Hatto shu real vaqtni ham insonlar o'z hissiyotlaridan kelib chiqqan holda turlicha qabul qiladilar. Badiiy adabiyot inson ruhiy kechinmalarini tasvirlaydi. Uning hayotini qalam yordamida qog'ozga ko'chiradi. Insonni o'rab turgan zamon, muhitni yoritadi.

Real hayotda vaqt doim olg'a harakatlanadi. Bazan vaqtning qanday o'tganini sezmayсан kishi. Goho vaqt tez, goho immillab borayotganday tuyuladi. Badiiy asarlarda esa vaqt bazan ilgarilab ketadi, bazan ortga qarab harakatlanadi, bazan esa butunlay to'xtab qoladi. Badiiy asarda yozuvchi tanlagan mavzuga muvofiq, hamda muallif xohishiga ko'ra voqealar oxiridan boshiga tomon tasvirlanishi yoki hatlab o'tilishi, davrlar sakrab o'tilishi, qandaydir fursat batafsil yoritilishi mumkin.

In the evening he practiced on his clarinet, strolled down town, read and went to bed. He was still a hero to his two young sisters. His mother would have given him breakfast

in bed if he had wanted it. She often came in when he was in bed and asked him to tell her about the war, but her attention always wandered. His father was non-committal.
[26, 105b]

Yuqoridagi badiiy asardan keltirilgan parchada temporallikning turli ko'rinishlarni uchratish mumkin. Badiiy matnning boshida *in the morning* payt ravishi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan ish –harakat haqidagi xabar ifodalanyapti. Parchaning dastlabki gapida zamon ketma-ketligi ko'zga tashlanadi: *practiced, strolled, read, went*. Keyingi gaplarda esa pauza yani chekinish kuzatiladi: *still*. Navbatdagi gaplarda esa takroriylik kuzatiladi: *often*. Badiiy matnda temporallik turli leksemalar ko'rinishida ifodalanadi.

Badiiy asarda voqelikning idrok etilishi o'ziga xos bo'lib, unda obyektiv borliq haqidagi tasvvur bilan muallif ijodi, fantaziyasi natijasida hosil bo'lgan shartli borliq haqidagi uyg'unlashadi. Voqelikning har qanday turdagi aksi (modeli) zamon munosabatlari doirasida m'lum ko'rinishni oladi, badiiy voqelik tasvirda bu munosabatlar matn kompozitsiyasini shakllantiruvchi omillardandir. Yuqoridagilarni hisobga olib shuni ta'kidlash lozimki, badiiy zamon fizik vaqtga qaraganda asarlarda birmuncha kengroq xarakterga ega. Bunga qo'shimcha ravishda "lirik chekinish" ilmiy atamasini tilga olish mumkin: "Badiiy asarlar (masalan, she'r va roman)dagi lirik chekinish - bu, voqea-hodisaning keskin uzilib qolishi va kerakli sharoitdan kelib chiqqan holda u yoki bu voqea-hodisani o'quvchiga yetkazish demakdir. Bunday chekinishning mazmuni tasvirlanayotgan voqea-hodisa bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Bu metodning ham o'ziga xosliklari mavjud".

Dinner was over, and my godmother and I were sitting at the table before the fire. The clock ticked, the fire clicked; not another sound had been heard in the room, or in the house, for I don't know how long. I happened to look timidly up from my stitching, across the table, at my godmother, and I saw in her face, looking gloomily at me, "It would have been far

better, little Esther, that you had had no birthday; that you have never been born!” [29; 23 p]

Obyektiv vaqtni tasvirlashda ayniqsa hozirgi zamon formalari ishtirok etadi. Badiiy asarda atrof muhit, tabiat manzarasi, personajlar ichki kechinmalari va shu kabilar hozirgi zamonda aks etadi. Doimiylik invariant ma’no xususiyatiga ega bo’lib, uning tarkibida davomiylik, harakatning yagonaligi va ushbu harakatning biror bir aniq vaqt oralig’i joylashmasligiga ishora qiluvchi semalar ajraladi.

I don’t know how it is, I seem to be always writing about myself. I mean all the time to write about other people, and I try to think about myself as little as possible, and I am sure, when I find myself coming into the story again, I am really vexed and say, “Dear, dear, you tiresome little creature, I wish I wouldn’t!” but it is all of no use. I hope any one who may read what I write, will understand that if these pages contain a great deal about me, I can only suppose it must be because I have really something to do with them, and I can’t be kept out [29; 120b].

Harakat bajarilishining davomiyligiga ishora qiluvchi ma’noning faollashuvi ma’lum muloqot muhiti, aniq bir kommunikativ mazmun ifodalashga yo’naltirilgan matn tuzilishi bilan uzviy bog’liq. Zamon shakllari vositasida ifodalanayotgan ma’nolarning turli konnotativ bo’laklarini (“davomiylik”, “qisqa muddatlilik”, “takroriylik” kabi) farqlash niyatida bo’lgan tilshunoslar zamon semantikasini harakat va holatning aniqligi va uning ma’lum vaqt oralig’ida, ma’lum davrda sodir bo’lishi yoki bo’lmasligiga nisbatan tavsiflashga harakat qiladilar. Ko’rsatilgan belgilar mavjud bo’lganda, zamon semantikasida “makonga ega bo’lish xususiyati” mavjud bo’lsa, harakatning noaniqligi, odatiyligi, doimiyligi uning biror bir vaqt oralig’ida joy olmasligidan darak beradi.

Who happen to be in the Lord Chancellor’s court this murky afternoon besides the Lord Chancellor, the counsel in the cause, two or three counsel who are never in any cause, and the well of solicitors before mentioned? [29; 9b]

Umuman hozirgi zamon shakllarining ma'no xususiyatlarini aniqlash bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu shakllarning matn tarkibida qo'llanishida zamon davriyligiga xos ma'nolarning chegarasi sayqallashadi va muallif beixtiyor leksik vositalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Hozirgi zamonning ma'no chegaralanishiga nisbatan bunday befarqligi natijasida uning matn tarkibida umumlashgan, takrorlanayotgan voqea-hodisalar tasviri vositasi vazifasini bajarishida yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon shakllarining ma'no ifodalashdagi bunday befarqligi ularning badiiy matnda o'tgan zamon shakllariga nisbatan kamroq qo'llanishida ham ko'rinadi. Zamon ko'rsatkichi va ma'nosining yuqori darajada umumlashuvi maqol, aforizm xarakteridagi va umumiy qonuniyatlarni ifodalovchi hukm propozitsiyasiga ega bo'lgan nutqiy tuzilmalar matnida yaqqol kuzatiladi.

Matn kommunikativ mazmunida Past Tense yoki o'tkan zamonning o'rni beqiyosdir. Chunki badiiy matnda aynan shu zamon eng ko'p qo'llanilishi bilan jonbozlik ko'rsatadi. Fe'lning o'tkan zamon shakli nutq davom etayotgan paytdan oldin sodir bo'lgan, tugallangan va davom etgan voqea hodisani ifodalash uchun qo'llanadi. O'tgan zamon shakli bajarilayotgan harakatlarning xronologik ketma-ketligi, davomiyligini ifodalash vazifasini o'taydi. Ammo bunday ketma-ketlik matn tarkibida turli ko'rinishlarda kechishi mumkin:

1. Voqea-hodisaning bir tekis, birin ketin sodir bo'lishi. Bu turdagi matnlarda vaqt oralig'i ko'rsatkichi mavjud bo'lishi mumkin. Buni, masalan, yil oylari, fasllar almashinishi va boshqa davriy ko'rsatkichlarning o'zgarishida ko'ramiz. Bunga oddiy misol qilib, Oskar Uayld qalkamiga mansub "Dorian Greyning portreti" asarini olish mumkin. Bir necha bo'limdan iborat bo'lgan asarni yozuvchi yosh va navqiron Dorian Greyning o'spirinlik davridan boshlab, uning ulg'ayib, vafotiga qadar bo'lgan hayotini tasvirlaydi. Dorianning har bir hayot mavsumiga muvofiq tarzda tasviriyl va ta'siriyl vositalarni qo'llaydi.

2. Voqea, harakatning notekis, uzuq-yuluq sodir bo'lishi. O'quvchida harakat davomiyligining to'liq tasavvuri matnda vaqt oralig'i ifodalovchi leksik-grammatik vositalarning mavjudligi bilan hosil bo'ladi.

3. Voqealar kechimining ikki ko'rinishdagi (juft) xronologiyasi. Bunda hikoya matnida temporallik ikki zamon qobig'idan iborat va ularning har birida voqealar ikki xronologik ko'rinishda sodir bo'ladi. Temporallikning bunday ko'rinishda namoyon bo'lishining sababi asar matnida asosiy mavzudan oldingi (asosiy voqeadan oldin kechgan) voqealarning muallif yoki personajlar tomonidan esga olinishidir. Bu turdagi ikkilanma temporallik strukturasi asosan muallif replikasi va izohlarida yuzaga keladi. Badiiy tasvirda hozirgi zamonga nisbatan o'tgan zamonga ko'proq murojaat qilishning turli sabablari mavjud. Ulardan eng asosiysi ushbu zamonlar vositasida ifodalanayotgan vaqt oralig'ining me'yoridagi farqidir. Ma'lumki, hozirgi zamon – qisqa muddatli vaqt, o'tgan zamon esa – uzoq davom etgan vaqt oralig'i, chunki o'tgan zamonda tasvirlanayotgan voqealarning boshlanishi bilan bir qatorda tugallik ham bor. Shu sababli voqealar ketma-ketligi, davomiyligini bayon qilishga intilayotgan yozuvchi zamonlarning o'zaro bog'lanishini ta'kidlab, voqea-hodisalarning hozirgi holatini oldingi voqealar ko'rinishida tasvirlashga harakat qiladi. Natijada, tasvir (hikoya) vaqti “boshdan kechirilgan” davrdek qabul qilinadi:

She didn't drink so much, now, since she had him. But if he lived he would never write about her, he knew that now. Nor about any of them. The rich were dull and they drank too much, or they played too much backgammon. They were dull and they were repetitious. He remembered poor Julian and his romantic awe of them and how he had started a story once that began, "The very rich are different from you and me." And how someone had said to Julian, Yes, they have more money. But that was not humorous to Julian. He thought they were a special glamorous race and when he found they weren't it wrecked him just as much as other thing that wricked him[26; 296-297bb].

Fe'l o'tgan zamon shakllarining o'zaro farqi ularning matnda bajaradigan vazifalari, ya'ni voqealar kechishini bayon qilish hamda tavsiflashi bilan bog'liqdir. O'tgan zamon davom fe'li shakli orqali hanuz davom etayotgan,

tugallanmagan harakat tavsiflanayotganida, voqea tavsifida o'tgan va hozirgi davrlar zanjiri hosil qilinadi. Shu yo'sinda o'tgan zamon shakli badiiy matnda hozirgi zamonning sinonimiga aylanadi.

Yuqorida batafsil yoritilgan badiiy zamon tuzilishining yana bir xususiyati shundaki, uning tarkibida ishtirok etayotgan zamon ko'rsatkichlari nafaqat voqealar bo'lishining davriy (xronologik) ketma-ketligini belgilaydi, balki vaqt davomiyligi tartibining buzilishini ham namoyon qiladi. Bunday buzilish, odatda, ikki ko'rinishga ega. Asar muallifi ma'lum bir voqelikni bayon qilayotganda, hodisa va harakatlarning ketma-ket (ayrim hollarda kichik to'xtashlar, uzilishlar bilan) sodir bo'layotganligini tasvirlash bilan chegaralanib qolmaydi, ba'zan "orqaga qaytish", oldingi voqealarni eslash harakatida ham bo'ladi. Natijada, muallif bayoni o'tmishga qaytish ruhi, mazmunini kasb etadi. Ye. I. Shendels fikricha badiiy zamon fe'lning grammatik zamon formalari yordamida subyektiv zamonning barcha xususiyatlarini ifodalashi mumkin. Shunday yo'l bilan, kontekstdagi o'z qahramonining subyektiv tomonlarini obrazli yetkazish uchun, yozuvchilar temporallikning quyidagi ko'rinishlaridan unumli foydalanadilar. Bu - reterdatsiya (voqea-hodisa, sahnani sustlashtirish), voqeani to'satdan to'xtatib qo'yish, yoki aksincha tempni tezlashtirish yoxud vaqtning ildamlab ketishidir. Masalan, Ernest Hemingueyning "In another country" hikoyasida quyidagi holatni kuztish mumkin:

The doctor went to his office in a back room and brought a photograph which showed a hand that had been withered almost as small as major's, before it had taken a machine course, and after was a little larger. The major held the photograph with his good hand and looked at it very carefully.

"A wound?" he asked.

"An industrial accident," the doctor said.

"Very interesting, very interesting," the major said, and handed it back to the doctor.

"You have confidence?"

“No,” said the major[26; 84b].

Yuqorida keltirilgan parchada fe'lining o'tgan zamon shaklida ifodalangan ketma-ketlik ko'ramiz. Keyin, zamon fe'lining hozirgi zamon shakliga ko'chadi va bu dialog ko'rinishida gavdalanadi. Muallif doktor va mayyor voqeasini shu yerda to'xtatib, keskin burilish hosil qiladi: voqea sodir bo'layotgan gospi talning bemorlarini tasvirlashga o'tadi. Avtor tasvirlayotgan zamonning bir nuqtada to'xtab qolishi sodir bo'layotgan hodisadan cheklanib ikkinchi bir makonga mustaqil ravishda o'tishi mumkinligini ko'rsatadi.

Muallif bayoni garchi o'tgan zamon shaklida bo'li, u o'tgan zamonda bo'lib o'tgan hikoyani bayon etish uchun xizmat qilayotgan bo'lsa-da, voqea-hodisalar kitobxon ko'z o'ngidan xuddi hozir sodir bo'layotgandek o'ta boshlaydi. Kitobxon mazkurparchani bugun yoki ertaga, umuman, qachon o'qishidan qat'i nazar, o'tgan zamon shakllari doimiy hozirgi zamon ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilaveradi.

O'tmishga qaytish (retrospektiv) kabi chekinish jarayonida o'tgan voqealarni xotirlash har doim ham bir xilda kechmaydi, chunki bir paytda, yagona bir vaqt oralig'ida sodir bo'lgan voqealar asar qahramoni xotirasidaturlicha talqin olishi mumkin. Voqelik talqinidagi bunday notekislik, albatta, inson xotirasi, uning tafakkur imkoniyati bilan bog'liq. O'tgan, hozirgi, kelasi zamonlarning tafakkurdagi, inson ongidagi o'zaro munosabatga kirishuvi voqealar bayonidagi “tartibsizlik” natijasidir. Ammo bu “tartibsizlik” noma'lumdir, matn bayoni bilan tanishayotgan o'quvchining aqliy faoliyati (idroki) natijasida voqealar qaytadan xronologik tartib oladi va ularning ketma-ketligining asl holati tasavvur qilinadi.

I believe Richard was as frank and generous a nature as there possibly can be. He was ardent and brave, and, in the midst of all his wild restlessness, was so gentle, that I knew him like a brother in a few weeks[29; 128b].

Yuqorda keltirilgan badiiy matn, “Bleak house” romanidan olingan parchada, asar bosh qahramoni Esterning Richard haqidagi fikrlari keltirilgan. Birinchi gap boshida (*men ishonamanki*) fe'lining hozirgi zamon shaklida fikr

bayon etilyapti. U bu bilan *men umuman, haqiqatda shunday deb o'ylayman* degan fikrni bildirish niyatida. Keyigi gap (*Richard sofdil va saxovatli edi*) fe'lining o'tgan zamon shaklida ifodalanmoqda. Richard qandaydir vaziyatda o'zining bunday xususiyatlarini ko'rsata olgan va bu Esterda yaxshi taasurot uyg'otgan. Romanni mutolaa qilayotib, bunday oliyhimmatlik Richarda doim xos bo'lgan, degan xulosaga keladi.

Ma'lumki, badiiy asar yaratilishida ikki asosiy tamoyil ustuvorlik qiladi: birinchidan, badiiy tasvir obyektining shartliligi, to'qima, yoki hayoliyligi bo'lsa, ikkinchidan, unda mavjud bo'lgan voqelikning aks etishidir. Birinchisining ustuvorligida o'tgan zamon shakli haqiqatdan ham real o'tgan zamon voqeligini tasvirlashdan ko'ra, ko'proq vaqt oralig'i (zamon) dorasiga kirmaydigan ma'lum mohiyatga ishora qiladi. Lekin shunga asoslanib, bu ko'rinishdagi o'tgan zamon shaklini vaqt tizimidan tashqi hodisa, degan fikrga kelish notog'ri. Epik o'tgan zamon shaklining boshqa ko'rinishdagi shakllarning o'zgacha ma'no kasb etishida funksional ko'chish yuzaga keladi va bunday ko'chish zamon shaklining boshqa pog'onadagi tuzilma – matn tarkibida qo'llanish natijasida hosil bo'ladi. Badiiy matnda aniq nutq momentining aks etmasligi o'tgan zamon shaklining badiiy matn tuzilishida o'z mohiyati va ma'nosini yo'qotishidan darak bermaydi. Aksincha, zamon kategoriyasi va zamon shakllarining matn grammatikasida o'z o'rnini bor. Matn tarkibida ham o'ziga xos grammatik munosabatlar hosil bo'ladi va ushbu munosabatlar zaminida matn strukturasi va mazmuni shakllanadi.

Badiiy matn kommunikativ mazmunida kelasi zamon o'ziga xos o'ringa ega. Nutq so'zlanib turgan vaqtda qaror qilingan ish-harakatga Future Tense yoki kelasi zamon deyiladi. U ham kelajakdagi davomiylik, va tugallanganlik kabi aspektlarga ega. Harakatning kelasi zamonda ifodalanishini tasvirlaydigan fe'l shakllari gumon yoki shart mayliga xos mazmunni ham ifodalashi mumkin. Kelajakda sodir bo'lishi kutilayotgan voqealar haqida gapirib, biz ularningsodir bo'lishiga munosabat (ishonch yoki gumon) bildiramiz. Tadqiqotchilar ayrim paytlarda xuddi shu modallik ma'nosining mavjudligi kelasi zamon mazmunidagi nutqiy tuzilmalarning matn tarkibida va nutqiy muloqot vaziyatlarida qo'llanish doirasini

chegaralaydi, degan fikrni bildiradilar. Bu fikrga munosabat bildirish uchun ham ushbu zamon ma'nosining matn doirasida faollashuv holatlarini o'rganishga ehtiyoj tug'iladi.

Bayon qilinayotgan voqea va harakatning kelajakda sodir bo'lishiga ishonch quyidagilarga asoslanadi: so'zlovchi

1) harakat sub'yekti (sublektlari)ning ushbu harakatni bajarish bilan bog'liq niyati, maqsadidan xabardor. Bunday holatlarda odatda ingliz tilidagi *to be going to*, *to be intend to* konstruksiyalari kelasi zamonni ifodalash uchun qo'llaniladi;

2) voqea ishtirokchilarining (sub'yektlarning) kelishuvi kelishuvi haqidagi ma'lumotga ega;

3) harakat bajarilishini nazarda tutuvchi reja, jadval, dastur kabilarni biladi;

4) harakat bajarilishi, voqeaning sodir bo'lishi shart bo'lgan sharoitlar bilan yaqindan tanishish. Masalan:

So'zlovchining ishonchi harakat sub'yektining ushbu harakatni bajarish niyatidan xabardorligiga asoslanganda, nutqiy tuzilmalar darak gap xarakterida bo'ladi. Bo'lajak harakat haqida xabar berilayotganda, sub'yektning niyatini ta'kidlash, va'da berish, unga biror narsani taklif qilish yoki uning taklifini qabul qilish yoxud aksincha, taklifini rad etish kabi kommunikativ maqsadlar ifodalanadi. Matn tarkibida ushbu mazmundagi nutqiy aktlar qo'shimcha ma'no ottenkalariga ega bo'lishi ham mumkin.

"If you want something extra," Retana said, "go and get it.

There will be a regular cuadrilla out there. Bring as many of your own pics as you want. The charlotada is over by 10:30."

"All right," manuel said. "If that's the way you feel about it."

"I'll see you to-morrow night," Manuel said.

"I'll be out there," Retana said[26; 193b].

Yuqorida keltirilgan parchada so'zlovchilarning bo'lajak harakatidan xabar berilmoqda. F'elning kelasi zamon formasi aks etgan birinchi gapda (*There will be a regular cuadrilla out there.*) so'zlovchi kelajakda sodir bo'ladigan voqea hodisaga ishonch bildirib, ushbu harakatning sodir bo'lishi takidlamonqda. Bu

harakatning bajarilishi muqarrar, sub'yekt xabar qilayotgan voqea sodir bo'ladi. Keyingi fe'lining kelasi zamon formasi ifodalangan gapda (*I'll see you to-morrow night*) esa xabar qilinayotgan gap oldindan rejalashtirilmagan bo'lib, u nutq davom etayotgan bir paytda qaror qilindi. Manuel taklif mazmunida gapiryapti. So'nggi gapda (*I'll be out there*) Retana taklifni qabul qilyapti.

D. S. Lixachev fikricha, badiiy zamon ham, grammatik zamon ham yozuvchi tomonidan ularning falsafiy jihatdan qaydarajada anglashinayotganiga yoki idrok etilayotganligiga ko'ra hosil bo'ladi. Obyektiv zamonning turli xilligi subyektiv munosabatning turli xilligidan tashkil topadi. Olim fikricha, yozuvchi asarni o'z idrokidan kelib chiqqan holda yaratatadi, va obyektiv vaqt turli tuman tasmlarda aks etadi.

Z. Ya. Turayeva temporallikni badiiy asar tabiati bilan bog'laydi. Olima temporallik uzoq yillar mobaynida filosof va fiziklarning tadqiqot obyekti bo'lib, so'nggi yillarga kelibgina o'z aksini til va adabiyotda topganligini ta'kidlaydi. "Badiiy zamon syujet tarkib topgan zamon deb tushiniladi. Har bir personaj, va har bir obyekt o'zining induvidual davriga ega". Muallifning fikriga ko'ra tekst strukturasi badiiy makon va badiiy zamondan tashkil topgan bo'ladi. Vaqt xisobi tarixiy xronologiya prinsiplari bilan mos kelmaydi. Bir necha yillar avval, hatto bir necha asr oldin sodir bo'lgan voqea-hodisalar badiiy asarda bir paytda tasvirlanishi mumkin. Shu bilan birga, asarda konkret vaqt va davr ko'rsatilmaydi, biror bir davr boshqasiga qarama-qarshi qo'yiladi: "O'ziga xos antiteza shundan iboratki, erkin san'atkor o'z maqsadini amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan hozirgi kunda, muallif davri qolgan boshqa davrlarga zid qo'yiladi ". Aslini olganda, badiiy asarda zamon bir, bir nechta qarama-qarshi va paralel yo'nalishda borishi mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan fizik vaqt esa bunday xususiyatga ega emas. Vaqtning fundamental xususiyatlaridan bo'lmish - tartib ham badiiy zamonga xos. Agar real hayotda natija sababdan ilgarilashi mumkin bo'lmasa, badiiy ijod jarayonida esa aksincha, bu usul keng tarqalgan.

1.3. Ilmiy matnlarda temporallik

Ilmiy matnlar umumxalq tilidagi matnlar hisoblansa-da, ularning o'ziga xos uslubi, leksik, grammatik qurilishi, terminologiya sohasidagi xususiyatlari bilan badiiy, publitistik kabi boshqa matn xususiyatlaridan tubdan farq qiladi. Avvalgi qismlarda ta'kidlanganidek matn mazmunida kommunikativ yoki estetik vazifa yetakchilik qilishiga ko'ra ikki asosiy guruhga, ya'ni badiiy va nobadiiy oppozitiv tiplarini farqlanadi. Ilmiy matnlar ushbu oppozitiv tiplarning nobadiiy guruhiga mansub bo'lib, ilmiy matnlar maqsad mohiyatida axborot uzatish, kommunikativ vazifa yetakchilik qiladi. Ilmiy asarlar olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga keladigan asarlar sirasidan. Ilmiy uslubda yartilgan asarlar asosan **monolog** shaklida yaratiladi. Ilmiy uslubning quyidagi janrlari mavjud:

- Monografiya;
- Maqola;
- Dissertatsiya;
- Ma'lumotnoma;
- Tezis;
- Taqriz;
- Annotatsiya;
- Darslik;
- Ma'ruza va boshqalar.

Ilmiy uslubdagi asarlar o'zlarining kommunikativ mohiyaiga ko'ra individual adresat ya'ni o'quvchiga emas balki sinfiy adresatga yo'naltirilgan bo'ladi. Ushu uslub adresantlari, yoki ilmiy asar muallifi ham anonim xarakterga ega bo'lib, subyektiv emotsionallikdan yiroq bo'ladilar. Ilmiy adabiyotlar ilmiy-tabiiy, ilmiy-gumanitar hamda ilmiy-texnikaviy adabiyotlarni ham o'zida mujassam etadi.

“Inson aqliy faoliyatining ikki sohasi – fan va adabiyot, bu sohalarda qalam tebratuvchi ikki qalb egasi – olim va adibning mehnati o'rtasidagi umumiylik

tabiat va jamiyat hodisalarini tasnif qilish va tasvirlash, tarqqiyot va ma'naviy kamolot yo'lida jamiyat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat[14; 109b].”

G'aybullar Salomov ta'kidlaganlaridek adib va olimining ham ijodiy faoliyatlari eng avvalo kamolot yo'lida jamiyat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat bo'lsada, fan bilan adabiyot va san'atning o'ziga xosliklari ularning o'z qonuniyatlari, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari-yu, vazifalari, tadbir va vositalariga ega ekanliklari bilan belgilanadi. Fanning asosiy dastmoyasi – fakt, adabiyotning ashyosi esa – obrazdir. Ilmiy tadqiqot uchun asos bo'lgan faktlar bilan badiiy asarga asos bo'lgan omillar bir-biridan jiddiy farq qilganidek, badiiy adabiyot obrazi bilan fandagi shartli simvollar bir-biriga sira ham o'xshamaydi. Masalan, matematika, fizika, texnika, kimyo kabi fanlarda qo'llanadigan formula, chizmalardagi shartli belgilar ham, aslida, o'ziga xos “obraz”, to'g'rirog'i, fikr, muddao, g'oyani abstrakt tarzda umumlashtiruvchi timsollardir. Ammo, roman yoki dostonlardagi obraz bilan ilmiy monografiya yoki risoladagi shartli timsollarning tashqi xususiyatlarini bir-birlarida qiyoslash mumkin bo'lsada, ularning ichki xususiyatlari orasida chuqur tafovut bor:

Consider the case where two similar information areas (call them cells), are able to communicate sequences of symbols. If one cell (A) contains a virus (V), and if communication results in the transmission of V to the other cell (B), and if B then interprets V, sequences of symbols stored in B may be modified. If appropriate communication paths are available, a virus may spread from cell to cell. Consider the case where two similar groups of cells (call them organisms), are able to communicate sequences of symbols. If one organism (A) contains a virus (V), and if communication results in the transmission of V to the other organism (B), and if B then interprets V, sequences of symbols stored in cells of B may be modified. If appropriate communication paths are available, a virus may spread from organism to organism. We can extend this sequence of analogous events indefinitely, and thus form a hierarchy of

organisms and an associated hierarchy of viral communication paths[15; 5b].

Keltirilgan ilmiy matnda *cell* atamasi obraz ko'rinishida gavdalanmoqda. Matn birligi sanalgan gapning esa subyekti vazifasini bajarib, predikat *consists* bilan bog'lanib, kommunikativ funksiya hosil qilmoqda.

Fan uslubi badiiy adabiyot uslubidan o'zinig bir qator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Ilmiy adabiyotlar uslubi kitobiy til tipiga xos bo'lib, ular yozma hamda og'zaki ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ilmiy matnlar mantiqiy mulohazaga sosan qurilgan bo'lib, unda emotsional-ta'sirchanlik, ekspressiv bo'yoqdorlik kabi vositalar mavjud emas.

Ilmiy matnlarning ham o'ziga xos grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlari mavjud. Ilmiy matnlar uchun ko'plab atamalarning ishlatilishi, turli xil qisqartmalarning qo'llanishi, turli xil grammatik konstruksiyalardan foydalanilishi xarakterli xususiyatlardan hisoblanadi. bunday turdagi matnlarda maxsus leksikaning ishlatilishi: atamalar va boshqa turdagi turli leksik tuzilmalar ilmiy matnlarning badiiy matnlarga qaraganda bir oz murakkabroq ekanligidan darak beradi. Garchi, ilmiy matnlarda ko'plab maxsus atamalar ishlatilsada, ular tarkibida umumiste'molda qo'llaniladigan so'z va so'z birikmalari ham ishlatiladi, ya'ni ular ko'pma'noli umumiste'mol so'zlaridir. Turgan gapki, ilmiy-texnik materiallarga oid matnlarda hech qachon faqat atama va maxsus leksikalardan foydalanilmaydi. Istalgan uslublarga xos, umumxalq tiliga oid bir qator so'zlar ham ishlatilishi mumkin. Qisqa va lo'ndalik; hissiy-ta'sirchanlik va obrazlilikning mavjud bo'lmasligi, frazeologik birliklarning texnik xarakterga ega bo'lishi aynan ilmiy matnlar uchun xarakterli xususiyatlardan sanaladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, turli vazifaviy uslublarga, janrlarga xos matnlarda temporallik mazmunini ifodalash turlicha bo'lib, ular o'rtasidagi farq matn mazmunidan anglashilib turadi. Tilning nominativ va semantik aspektlarida muhim o'ringa ega bo'lgan temporallik kategoriyasi ilmiy matnlarda badiiy matnlardagidan tubdan farq qiladi. Ilmiy matnlar temporal maydoni badiiy matn

temporallik maydoniga qaraganda bir muncha tor bo'lib, ilmiy matnlarda temporallik kategoriyasi yuqori darajada ko'zga tashlanmaydi.

Matn temporal maydoni markazida fe'lining grammatik zamon formalari turishi haqida avvalgi qismda to'liq ma'lumot berilgan edi. Ilimiy matnlarda eng avvalo, majhul nisbatdagi kategoriyalari keng qo'llaniladi. Shu o'rinda nisbat kategoriyasi xususida to'xtalar ekanmiz, unga shunday izoh berish mumkin: fe'lga xos nisbat kategoriyasi sintaktik konstruktiya tomonidan ifoda etilgan vaziyatning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat xarakteri va uning yo'nalishini ko'rsatadi. Ingliz tilida majhul nisbat muammosi ko'plab tilshunoslarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay ingliz tilida majhul nisbat muammolarining ko'pgina qismi o'rganilmaganligicha qolmoqda. Shunday muammolardan biri majhul nisbat va temporal-aspektual formalar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tadqiq etish muammosi sanaladi[4; 8b]. Ma'lumki, ingliz tilida majhul nisbat *to be* ko'makchi fe'li va *Sifatdosh II (Participle II)* dan tashkil topadi. Majhul nisbatning bunday qurilmalaridagi ega majhul yoki passiv ega deb yuritiladi va ish harakatning obyektini vazifasini o'taydi. Ilimiy matnlarning ko'pchiligida subyektning *anonim* bo'lishi ham aynan mana shundan kelib chiqadi:

*The results of several experiments with computer viruses are used to demonstrate that viruses are a formidable threat in both normal and high security operating systems. Detailed descriptions of experiments **are given** for three examples, an example of a very short virus for an actual operating system **is given**, and summary tables **are presented** [15; 7b].*

Ingliz ilmiy matnlarida Passiv va aktiv nisbat konstruksiyalarida eng ko'p qo'llanilishi bo'yicha Present zamon formalari oldingi o'rinda turadi. Ushbu tipdagi matnlarda Present Passivning asosiy funksiyasi hozirgi zamon noaktualligi (doimiylik yoki abstraktlik)ni ifodalashdir:

*Most of the literary-bookish coinages **are built** by means of affixation and word compounding. This **is built** natural; new*

*words built in this manner **will be** immediately **perceived** because of their unexpectedness [17; 88b].*

Ilmiy matnlarda Present Passiv o'tkan zamonda sodir bo'lgan voqea hodisani ham ifodalash uchun qo'llanilishi mumkin. Bunday grammatik zamon formasini nemis tilshunoslari Präsens historicum deb ataydilar. Bu zamon formasi nemis ilmiy matnlarida qo'llanilish daraja ko'rsatkichi 12,9% ni tashkil etadi[12; 11b]. Bunday matnlarda Present Passivning o'tgan zamonni ifodalash uchun qo'llanishining asosiy indikatori kontekst, ekstralingvistik faktorlar yoki leksik birliklar bo'lishi mumkin.

Biz tadqiq etilayotgan matnlarda Futural Present zamonni ham uchray turadi[12; 11b]. Bu zamonning Futural Present nomini olgani tasodif emas. Chunki, bu zamonda ifodalanayotgan axborot Present Simple zamonida bo'lsada, ma'no kelasi zamonni ifodalaydi. Present Passivning kelasi zamonni ifodalashining asosiy indikatorlari kontekst va leksik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bazar kelasi zamonga xos axborotni ifodalovchi leksik ko'rsatkichlar *must* va *should* modal fe'llari bo'lishi mumkin. Bu modal fe'llar kelasi zamonni ifodalash maqsadida nafaqat kelasi zamonga xos bo'lgan leksik ko'rsatkichlar bilan, balki hech qanday ko'rsatkichsiz mustaqil qo'llanilishi ham mumkin.

*It **should follow** from this that not only the of-, to-, and for-phrases, but also all the other prepositional phrases in English must be regarded as “analytical cases”[17; 44b].*

Ingliz tilidagi *must* modal fe'li boshqa modal fe'llar kabi ko'pma'noli bo'lib, asosan *shratlilikni* ifodalash uchun qo'llaniladi.

Ilmiy matnlarda keltirilgan faktlar qonun-qoidalarini ifodalashda Present Passivning qo'llanilish tendensiyasi quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi[18; 12b]:

- 1) abstrakt yoki ko'plikdagi ot bilan ifodalangan patsiensning* umumiy xarakterga ega ekanligi;
- 2) matnda keltirilayotgan faktlarning haqiqatdan ham qoidalar va farazlar ekanligini bildiruvchi leksik birliklarning qo'llanilmasligi;

- 3) *must* va *can* modal fe'llari bilan Infinitiv Passiv konstruktivlarining qo'llanilishi. Ma'lumki, *must* va *can* kabi modal fe'llar kelajakda qonun yoki qoidaga aylanadigan voqea-hodisalarning obyektiv yoki subyektiv zaruriyatini ifodalashi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilmiy va publitistik matnlarda Present Passiv nutq davom etayotganda davom etayotgan yoki davom etmayotganligi muhim bo'lmagan odatiy voqea-hodisalar, qonuniyatlar, takroriy hodisalarni, umumiy haqiqatni ifodalashda keng qo'llaniladi.

Ingliz tilidagi Future Tense (Kelasi zamon) formalarining majhul nisbati ilmiy matnlarda qo'llanilish darajasi bir oz past. Aktiv nisbatda esa bir oz yuqori. Har qanday kelasi zamonga oid voqea-hodisani ifodalashda ham ikkala nisbatga ko'ra asosan yuqorida tilga olingan Futural Present zamoni kengroq qo'llanadi.

Ingliz ilmiy matnlarida Past Tense zamonlaridan Past Indefinite Tense aspeki Past Perfect va Past Continuous aspektalari o'rnida qo'llanilishi mumkin. Shu munosabat bilan, o'tgan zamon formalaridan Past Indefinite aspekti eng ko'p qo'llanilishi bilan jonbozlik ko'rsatadi. Past Perfect Passiv ilmiy matnlarda Past Indefinite Passivdan farqli o'laroq temporal funksiyasi chegaralangan. 75% hollarda Past Perfect Passiv o'tgan zamonning mutloqligini ifodalaydi. Past Perfect Passiv bilan ifodalangan mutloq tugallangan ish-harakat asosan matnda keltirilayotgan faktga aniqlik kiritish maqsadida qo'llaniladi.

*After successful experiments **had been performed** on a UNIX system, it was quite apparent that the same techniques would work on many other systems. In particular, experiments were planned for a Tops-20 system, a VMS system, a VM/370 system, and a network containing several of these systems [15; 98b].*

Ish-harakatning tugallanganligining Past Indefinite Passiv bilan ifodalanishi ba'zi hollarda *natijani* ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

*After several months of negotiation and administrative changes, it **was decided** that the experiments would not be permitted [15; 98b].*

Past Indefinite Passiv tugallangan ish-harakatning muddatini ko'rsatishi mumkin. Bunday hollarda davom etgan jarayonning aniq vaqti va ushbu jarayonda sodir bo'lgan voqea-hodisalarga to'liq to'xtalmay o'tilib, turli xildagi leksik birliklar yordamida bo'lib o'tgan jarayonga aniqliklar kiritilishi mumkin.

*After 26 hours of use, the virus **was demonstrated** to a group of about 10 people including administrators, programmers, and security officers [15; 99b].*

Ilmiy matnlar temporal xususiyati bir oz murakkab tuzulishga ega ekanligi kelajakda tilshunoslar oldiga ular ustida jiddiy tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi. Bugungi kungacha ilmiy matnlarda eng kam qo'llaniladigan zamonlarning Continuous aspektlari, Future-in-the Past zamon formalari ham to'liq o'rganilmaganligicha qolmoqda.

BOB II. BADIY TARJIMADA TEMPORALLIK

2.1. Badiiy tarjimada temporallikning ifodalanishi

*"Ko'p asrlik adabiy an'anaga ega bo'lgan milliy
adabiyotlarning hammasida ham tarjima o'ziga munosib
o'rinni ishg'ol etadi"*

G'aybulla as-Salom

Badiiy tarjima adabiyotlarning o'zaro ta'siri va bir-birlarini boyitishi deb ataladigan muhim jarayonlarning jonli va amaliy zaminidir. "Men uchun tarjima dastlab san'atdir" degan edi FIT (Federation Internationale des Traducteurs - Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi) prezidenti Pyer Fransua Kaye[10; 5b]. Bu shu qadar nafis san'atki, biz tarjima qilingan har bir adabiy so'zga mehr bilan, ehtiyot bilan qarab, bu boradagi xato va nuqsonlardan qattiq ranjiymiz. Ammo tarjima - sermuammo san'at. Uning xususiyati to'g'risida ko'pgina ziddiyatli fikrlar tug'ilib kelgan. Tarjimaning har bir turi, har bir janr o'z tarjima muammolariga ega. Bularning barchasini asta-sekin yechib, murakkab, universal sohani baholi qudrat olg'a siljitayotgan zahmatkash tarjimonlarimiz katta g'oyaviy-badiiy vazifani ado etmoqdalar. Aytish mumkinki, tarjimonlarimizning hozirgi avlodi (Poshali Usmon, Dina Sultanova)va bizga boy me'ros qoldirib ketgan ajdodlarimizdan bo'lmish dong'i ketgan o'zbek tarjimashunos olimlarimiz G'aybulla Salomov, Jumanioz Sharipov, Gulnora G'afurova, G'ulomjon Xo'jaev va boshqalar respublikamizda professional badiiy tarjima san'atiga asos soldilar.

Qadimgi zamonlardan boshlab to hozirgi kunlargacha tarjimonlar g'oyat muhim vazifaga doim kamarbasta: ular madaniyatlarni bir-biriga bog'lashdek qutlug' maqsadga xizmat qiladilar. Xalqlarning ma'naviy tarafdin bir-birlarini boyitishlari evaziga sivilizatsiya qaror topadi. Binobarin, ilg'or qarashlar, kishilarning erkinligi, tengligi, qardoshligi g'oyalarini tarqatuvchilar sanalmish tarjimonlarning roli bebahodir. Bizning sharoitimizda tarjimon shunchaki til bilgich emas. Shu bilan birga, badiiy matnni qayta yaratuvchi shunchaki iste'dodli adib ham emas (ammo masalaning u tarafi ham muhim, negaki, garchi ko'p til

bilgan politolog bo'lgani bilan, o'zi kam qobiliyatli adib bo'lsa, undaylarning ham, ming afsuski omadi yurishmaydi). Tarjimonni rus tarjimashunosi Sergey Baruzdin ekspert deb ataydi, chunki tarjimon biron o'lka adabiyotining bilimdoni, biror respublika bilan doimiy aloqadagi kishidir. Tarjima qilmoqqa kirishgan adabiyoti vatanida turadimi u, yoki o'z vatanida istiqomat qiladimi, bundan qat'iy nazar, u ayni o'lkaning madaniyatini biladigan, matbuotini kuzatib boradigan, u yerdagi yozuvchilar bilan bevosita aloqador kishi bo'lishi lozim. Qisqasi, tarjimon o'lkaning o'ziga xos "muxtor vakili" bo'lmog'i lozim. "Menimcha, tarjimonlar faoliyatining ahamiyati bebahodir. Butun dunyodagi behad ko'p kishilar tarjimonlarning mehnati orqasida boshqa xalqlarning madaniy xazinalariga yo'l topadilar. Tarjima universal rol o'ynaydi. Tarjim madaniyat va taraqqiyot, tinchlik va kishilarning bir-birlarini o'zaro tushunib olishlari ishiga gumanizmning oliy ideallariga xizmat qiladi. Kishilarni bir-birlariga yaqinlashtirish - bu bag'oyat savob ish emasmi?!" deb javob bergandi janob Kaye, hozirgi zamonda tarjima qanday rol o'ynaydi degan savolga[10; 44b].

Bugungi kunda tarjima sohasida erishilgan yutuqlar sarhisob qilinar ekan, bu o'z-o'zidan paydo bo'lmaganligi, xalqimiz orasida yetishgan ma'rifatparvar kishilar, davlat va jamoat arboblari, atoqli tarjimon va jurnalistlarning fidoyi mehnati natijasida qo'lga kiritilganini unutib bo'lmaydi.

Badiiy tarjima - eng ko'p muammoli san'at turlaridan biri, bizning davrimizda, ta'bir joiz bo'lsa, ko'p tarmoqli xo'jalik: ruschadan tarjima, milliy tillardan tarjima, Sharq tillaridan va Sharq tillariga tarjima, biror til vositachiligida qilinadigan tarjima, asl nusxadan tarjima va hokazo; bu tarmoqlarning har biri, umumiy masalalardan tashqari, o'ziga xos muammolarga ham egadir. Ikki ming yil muqaddam yunon mutafakkiri Liviy Andronik buyuk Gomerning "Odisseya"sini lotin tiliga o'g'irgan. Bu bilan u amaliy tarjimachilik faoliyatiga asos solibgina qolmay, balki birinchi bo'lib tarjima nazariyasining og'ir mashaqqatlariga duch kelgan ham. Biroq Yevropada tarjima muammolari faqat VIII - IX asrlardan boshlab chinakamiga e'tiborni torta boshladi. "Badiiy tarjimaning yagona jiddiy nazariyasini yaratish menga prinsip jihatidan mumkin emasday tuyuladi. Sabab,

badiiy tarjima badiiy matn bilan chambarchas bog'liqdir", - degan edi M. I. Zand Moskva simpoziyumdagi nutqida[10; 32b]. I bobning 2-qismida badiiy matnga to'liq izoh berilib, uning tuzilishi, kommunikativ asoslari, matn turlari, ular o'rtasidagi asosiy farqlarga to'liq to'xtalib o'tgan edik. Badiiy tarjima matni ham badiiy matn ega bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Badiiy tarjima ham badiiy asar kabi o'z qonuniyatlari, maqsadi va vazifasi, tadbir va vositalariga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Turli zamon, davrlarda yashab ijod etgan yozuvchilarning yaratgan asarlarida yoki shoirlar ijodida bir-biriga tamoman zid keluvchi fikrlar, g'oyalar, qarashlar ilgari surilishi mumkin. Ikki ijodkor – adib va yozuvchi ijodiy evolyutsiyasi, dunyoqarashi, zamonlar o'rtasidagi tafovut, milliy o'ziga xosliklar, bir biriga tamoman zid bo'lgan qadriyatlar kabi ob'yektiv omillar tarjimonga ijodida bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Tarjimon va yozuvchi o'rtasida tushinmovchilik uyg'otadi. Bu badiiy tarjimaning eng ko'zga ko'ringan muammolaridan biri bo'lgan tarjimada zamon va makon muammosidir. I bobning 2-qismida (**Badiiy matnda temporallikning izohlanishi**) oldimizga ko'ndalang qo'yilgan badiiy matnda temporallik muammosining endi badiiy tarjima matnida har tomonlama chuqur tadqiq etish, muammoni yana bir karra murakkablashtiradi. Chunki endi oldimizga bir til vositasida yaratilgan badiiy matn emas balki tarjima matnining temporal sathini tahlil etish muammosi turadi.

Yuqoridagilardan mushohada qilib badiiy tarjima matnida temporallik maydonining uch qirrali ekanligini ta'kidlash lozim.

a) **Muallif zamon muammosi.** Bu yuqorida aytib o'tilgan muallif va tarjimon o'rtasidagi zamon va makon ziddiyatidir. Asliyat matni tarjimon yashab turgan zamon bilan hamohang bo'lishi va bo'lmasligi mumkin. Shu sabablai, tarjimon asarda bayon etilgan davrning barcha o'ziga xosliklarini chuqur o'rganib chiqishi zarur. O'sha davrda hukmron bo'lgan qarashlar, g'oyalar tarjimonga ma'lum bo'lishi darkor. Tarjimon asliyat tilining bugungi ko'rinishini hamda asar yozilgan davrdagi rivojlanish bosqichini puxta bilmog'i lozim. Bu tarjimaning

butun va sifatli bo'lishini taminlaydi. Tarjimon badiiy asar bilan zamondosh bo'lgan hollarda esa tarjimon asliyat muallifi tasvirlagan millat mentaliteti, turmush tarzi, madaniyati, qadriyatlaridan boxabar bo'lmoqlik tarjima uchun ayni muddao. Asliyat muallifini shu asarni yozishga undagan sabablarni-yu, muallif asar orqali o'quvchiga nimani yetkazmoqchi bo'lganligini, yozuvchi ushbu ijodi mavzusi ostida qanday g'oya yotganligini tushinib yetishi lozim.

b) **Badiiy tarjima matnida badiiy zamon kategoriyasi.** Badiiy tarjimada badiiy zamon kategoriyasi barcha badiiy matn ega bo'lgan xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

c) **Badiiy tarjima matnida fe'lning grammatik zamon kategoriyasi.**

Ko'pgina tilshunos olimlar predikatni to'rtta kategoriya yig'indisidan iborat deb belgilaydilar: personallik, temporallik, modallik va tasdiq-inkor. Temporallik kategoriyasi predikatning zamon sathi bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi fe'llarning grammatik zamon kategoriyasi ingliz tili nazariy grammatikasi va morfologiyasining tadqiqot predmetlaridan bo'lib xizmat qiladi. Fe'llarning grammatik zamon kategoriyasi ustida B. A. Ilyish, L. S. Barxudarov, Smirnitiskiy, A. Meye kabi bir qator ko'zga ko'ringan tadqiqotchi tilshunoslar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ammo zamonaviy fan olamida ingliz tilidagi fe'llarning zamon formalari miqdori, hozirgi, kelasi va o'tgan zamon formalari va ularning o'zbek tiliga tarjimasida ifodalanishi to'grisidagi ko'plab bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan qarashlar, bu muammolar kelgusida tilshunos va tarjimashunoslarimiz oldiga tizimli tadqiqot ishlarini olib borilish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Masala yechimini topish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning zamon kategoriyasini ko'rib chiqish;
2. Ularni qiyosiy-tipologik tahlil etish;

3. Badiiy uslubga xos bo'lgan tarjima matnlaridagi zamon kategoriyasining qonuniyatlari va muammolarini aniqlash va ikki til o'rtasidagi tarjima matnlarida tahlil etish.

Fe'l tizimiga xos bo'lgan zamon kategoriyasi materiyaning mavjudlik shakli sifatidagi vaqtning aks etishidir. Harakat gapirilib turgan nutq momenti bilan bir vaqtda, nutq momentidan oldin, va nutq momentidan so'ng sodir bo'lishi mumkin. Shunga muvofiq fe'llarda uch xil zamon shakli mavjud bo'lib, bular hozirgi zamon, o'tgan zamon va kelasi zamon deb ataladi. Zamon kategoriyasiga berilgan bunday ta'rif har bir zamon shaklining nutq momenti bilan mos kelish zaruratidan kelib chiqqan bo'lib, materiyaamizda sodir bo'ladigan barcha xil ish-harakatlar shu uch zamon asosida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, nutq momenti zamon shakllari uchun asosiy nuqta hisoblanadi. Ingliz va o'zbek. Shunday ekan barcha tillardagi kabi ingliz va o'zbek tillarida ham fe'llarning zamon kategoriyasi nutq davom etayotgan vaqtga nisbatan belgilanadi. O'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi fe'lning uch zamon shakli mavjud. Bular: 1) Hozirgi zamon; 2) Kelasi zamon va 3) O'tgan zamon. O'zbek tilidagi fe'l zamonlari bir necha shakllar yoki aspektlarga ega.

O'zbek tilidagi **o'tgan zamon fe'li** ish harakatning nutq sozlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi. O'zbek tilida o'tgan zamon fe'li hozirgi va kelasi zamon fe'llariga nisbatan ko'proq shakllar ya'ni aspektlarga ega.

1) **Aniq o'tgan zamon** shakli fe'l o'zagi yoki negiziga *–di* zamon va shaxs *–son* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Fe'lning aniq o'tgan zamon shakli ish-harakat so'zlovchining ko'z oldida yoki uning ishtirokida bajarilganligini anglatadi. *Men bu kitobni o'qidim.*

2) **Yaqin o'tgan zamon shakli** fe'l o'zagi yoki negiziga *–gan* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi va nutq so'zlanib turgan paytdan ancha ilgari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi. *Men bu kitobni o'qiganman.*

3) **Fe'lining uzoq o'tgan zamon shakli** fe'l o'zgi yoki negiziga –*gan edi* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'lib, yaqin o'tgan zamon shaklini ifodalagan vaqtdan ham ancha ilgari bajarilgan yoxud bajarilmagan ish-harakatni bildiradi. Qiyoslang: *Men bu kitobni o'qidim. Men bu kitobni o'qiganman. Men bu kitobni o'qigan edim.* Birinchi gapdagi ish-harakat yaqin kunlar ichida bajarilgan. Ikkinchi gapdagi ish harakat esa bir oy yoki undan ortiqroq vaqt ilgari bajarilgan. Uchinchi gapdagi ish-harakat bir yoki bir necha oy oldin bajarilgan bo'lishi ham mumkin.

4) **O'tgan zamon davom fe'li** fe'l o'zagi yoki negiziga –*r, -ar, -yotgan, -moqda* qo'shimchalaridan so'ng *edi* to'liqsiz fe'lini keltirish hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. O'tgan zamon fe'lining bu shakli ish-harakatning davomli bo'lganligini, muntazam takrorlanib turganligini anglatadi. *Men bolaligimda ko'p kitob o'qir edim. Sen hovlida kitob o'qimoqda eding.*

5) **O'tgan zamon maqsad fe'li** fe'l o'zagi yoki negiziga –*moqchi* qo'shimchasi hamda *edi* to'liqsiz fe'li va tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bunda o'tgan zamonda ish harakatni bajarish maqsad qilib qo'yilganligi, rejalashtirilganligi ma'nosi anglashiladi. *U kitob o'qimoqchi edi.*

O'zbek tilida **hozirgi zamon fe'li** ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan yoki bajarilmayotganligini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida hozirgi zamon fe'lining *ikki* shakli mavjud. 1. Hozirgi zamon davom shali. 2. Hozirgi kelasi zamon shakli.

1) **Hozirgi davom zamon shakli** quyidagi qo'shimchalardan birini fe'l o'zagi yoki negiziga qo'shib, shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali hosil qilinadi: –*yap, -moqda, -yotib, -yotir. Yurmoq, turmoq, o'tirmoq* va *yotmoq* fe'llari o'zagiga –*ib* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ham hozirgi davom zamon shakli hosil qilinadi. Biroq bu fe'llar bilan shu zamonning inkor shaklini hosil qilib bo'lmaydi. *Men kitob o'qiyapman.*

2) **Fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli** fe'l o'zagi yoki negizi undosh tovush bilan tugagan paytda –*a*, unli tovush bilan tugagan hollarda esa –*y*

qo'shimchasi iqo'shish hamda tegishli shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali hosil bo'ladi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytgacha, undan so'ng ham amalga oshirishini yoki ish-harakatning doimiy yuz berishini ifodalaydi. Masalan: *so'zlaringdan o'zimda yo'q quvonaman (Tinglovchi so'zlovchining gaplarini eshitish jarayonida quvonyapti). Bugun kitobingizni olib ketaman (Ish-harakat nutq so'zlanib bo'lgandan so'ng amalga oshiriliadi). Biz Samarqand shahrida yashaymiz. Oy Yer atrofida aylanadi (Biz nutq so'zlanguncha ham ko'rsatilgan shaharda yashaganmiz, nutq so'zlanayotgan paytda ham yashayapmiz, nutq jarayonidan so'ng ham yashashimiz nazarda tutilyapti. Oyning Yer atrofida doimiy aylanishi ham shu taxlit davom etadi).*

O'zbek tilida **fe'lning kelasi zamon shakli** ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng yuzaga chiqish yoki chiqmasligini anglatadi. O'zbek tilida kelasi zamon fe'lining ikkita shakli mavjud: 1. Kelasi zamon maqsad shakli. 2. Kelasi zamon gumon shakli.

1) **Kelasi zamon maqsad shakli** fe'lo'zagi yoki negiziga –*moqchi* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Kelasi zamon maqsad fe'li ish-harakatning maqsad, niyatqilinganligi, rejalashtirib qo'yilganligini anglatadi. *Badiya yangi yilni Toshkentda Shamsiya bilan kutib olmoqchi.*

2) **Kelasi zamon gumon shakli** fe'l o'zagi yoki negiziga –*r, -ar* qo'shimchalaridan mosini qo'yish va ulardan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini keltirish orqali yasaladi. Fe'lning bu shakli kelgusida amalga oshirish yoki yoki amalga oshmasligi gumon, noaniq bo'lgan ish-harakatni anglatadi. *Ko'rarman, o'qirman.*

Ingliz tilidagi fe'llarning zamon va aspekt kategoriyasiga to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek tilidan farqli o'laroq ingliz tili fe'l tizimida zamon va aspekt ma'nolarini ifodalovchi shakllarning to'rt xil guruhi mavjud bo'lib, ular hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllarida o'z ifodasini topadi. Bular noaniq, davomli, perfektli va davomli perfektli aspektlardir.

Ingliz tili fe'llariga xos bo'lgan aspekt kategoriyasi ish-harakatning vaqt davomida sodir bo'lish usuli va xarakterini ko'rsatadi. Bu shundan dalolat

beradiki, aspekt kategoriyasi ish-harakatning sodir bo'lish xarakterini zamon kategoriyasi bilan bog'liq tarzda aniqlovchi grammatik kategoriya hisoblanadi. bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, inglizcha fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan aspekt grammatik kategoriyasi tilda ikkilamchi vazifani bajarsa, zamon kategoriyasi esa birlamchi vazifani bajaradi. Bunday holat aspekt shakllarining zamon shakllaridan ajralgan holda mavjud bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Ingliz tili grammatikasida zamon va aspekt ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan fe'l shakllari *tense* atamasi bilan ifodalanadi. Bu atama materiya mavjudlik shakli sifatidagi vaqtni ifodalovchi *time* atamasidan tubdan farq qiladi.

Ingliz tilida ***fe'lining hozirgi zamon shakli*** yoki ***Present Tensening*** quyidagi aspektlari mavjud:

1. ***Hozirgi noaniq zamon (Present Indefinite Tense)*** nutq momentiga kiradigan ish-harakatni uzatishdan iboratdir. Ish-harakat sodir bo'lishining o'zi xarakteriga ko'ra batamom xilma-xil bo'lishi mumkin. Xususan, *The Earth rotates round its axis* misolidagi fe'l shakli davom etuvchi harakatni ifodalaydi. Negaki, *to rotate* fe'li tugallanmagan fe'l hisoblanadi. Endi quyidagi misolga e'tibor qilsak, *And in this reach too, one first meets the seagulls and is reminded of the sea* gapida alohida tugallangan akt aks etgan. Chunki, *to meet* fe'li tugallangan fe'l sanaladi.

Ingliz tili fe'l tizimidagi aspekt semantikasining bunday tarzda cheklanmaganligi shuni ko'rsatadiki, noaniq shakllar doim mavjud bo'lgan biror bir aspekt ma'nosiga ega bo'lmaydi. Kontekstlarda uchraydigan turli xil aspekt ko'rinishlari fe'lga xos bo'lgan spektli xarakterning osongina aks etishini ko'rsatadi.

Hozirgi noaniq zamon doimo nutq momentidan kelib chiqadi. Hozirgi noaniq zamon qo'llanilishining asosiy holatlaridan biri ***tarixiy hozirgi zamon (Historical Present)*** sifatida ishlatilishidir. U ko'proq badiiy adabiyotlarda voqea-hodisalarni yanada jonliroq va chiroyliroq ifodalash uchun xizmat qiladigan stilistik usul sifatida qo'llaniladi.

Hozirgi noaniq zamon kelasi zamon ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunday holat faqat aniq bir dastur yoki ma'lum bir reja haqida gap borganda sodir bo'ladi. Masalan, *I leave toninght.*

Shunday qilib, fe'llarga xos bo'lgan aspekt ma'nosining noaniq shakllari nutq jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat haraktning davom etishi, tugallanishi, qisqa davom etishi kabi xususiyatlar asosida namoyon bo'ladi.

2. **Hozirgi zamon davom fe'li** yoki **Present Continuous Tense** nutqning ma'lum bir momentida haqiqatdan sodir bo'layotgan, davom etayotgan jarayonga o'xshash harakatni ifodalaydi. Ushbu zamondagi fe'l ifodalayotgan harakat qoidaga muvofiq nutq momenti bilan bevosita yaqinlikka ega. Bunday fe'l shakli ifodalayotgan harakat jarayoni ish-harakat sodir bo'lishi davomida doimo nutq momentini o'z ichiga oladi. Undagi harakatning boshi yoki oxiri ko'pchilik hollarda ifodalanmaydi. Hozirgi zamon turlarining davomli shakllari stilistik maqsadda ham qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda faqat jadal harakat nazarda tutiladi, ya'ni gapiruvchini subyektiv-emotsional munosabati namoyon bo'ladi. Masalan, *People are always blaming their circumstances for what they are.*

Shuningdek, hozirgi zamonning davomli shakllari yaqin kelasi zamon ma'nosini ham berishi mumkin. Bunday hollarda gap tarkibida albatta, vaqt holining ishtirok etishi shart emas. *They are coming tomorrow.*

Ushbu zamon **to be** fe'lining shaxsli shakllari ya'ni hozirgi zamon shaklida **am, is, are** hamda tuslanuvchi fe'lning kerakli zamondagi sifatdosh I bilan birikishi orqali yasaladi. *I am reading a book.*

3. **Hozirgi tugallangan zamon** yoki **Present Perfect Tense** shakllarining asosiy ma'nosi ma'lum bir nutq momentidan oldin tugallangan ish-harakatni ifodalashdan iboratdir. Ingliz tilidagi tugallangan zamon asosiy zamon turlaridan bo'lib, sof zamon ma'nosiga egadir. Hozirgi zamon perfektining turga xos asosiy ma'nolaridan biri ish-harakatning nutq momentiga nisbatan tugallanganligidir. Perkektning vaqtga xos bunday ma'nosi harakatning nutq momenti davri ichida sodir bo'lishidan iborat.

Ingliz tilidagi fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, tugal ma'noga ega bo'lgan barcha harakatlarning hammasi ham o'tgan zamonga tegishli bo'lavermaydi. Harakatning tugallanganligini aks ettirishda o'tgan zamonning noaniq shakllaridan foydalaniladi. Ammo ba'zida harakatning tugallanganligiga qaramasdan, gapning kesimi hozirgi zamon bilan bog'liq bo'ladi. Bunda harakat sodir bo'layotgan vaqtning tugallanganligini ifodalovchi ko'rsatkich tushib qoladi va gapdagi ish-harakat hozirgi zamon ma'nosiga ta'luqli bo'lib, perfekt orqali ifodalanadi. Perfektda nutq momenti bevosita harakat momentiga kirmaydi. Lekin, harakat nutq momenti davriga kiruvchi vaqt davomida sodir bo'ladi. Masalan, *He has arrived* gapida gapiruvchi boshqa bir shaxsning kelishi haqida tugallangan harakat sifatida xabar bermoqda. Bunday hollarda perfekt shakllarining qo'llanilishi harakat sodir bo'layotgan vaqt nutq momentiga nisbatan tugallanmaganligini ko'rsatadi va shunga ko'ra fe'lining bunday holati hozirgi zamon turlariga kiritiladi. Bu misolga qarama qarshi tarzda *He arrived yesterday* gapini oladigan bo'lsak, unda harakat sodir bo'layotgan vaqt tugallangan va shuning uchun ham bu gap o'tgan zamonga tegishlidir.

Perfektning yana bir muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u hikoya qilish vazifasiga ega emas. Chunki u yagona harakatni aks ettiradi. Bu zamon birin-ketin hikoya qilinayotgan harakatni qo'llashda ishlatilmaydi. Fe'lining ushbu zamon shakli **to have** fe'lining shaxsli shakllari hamda tuslanuvchi fe'lining kerakli zamondagi sifat-dosh II bilan birikishi orqali yasaladi. *I have met them recently*.

4. Hozirgi tugallangan davom zamoni yoki **Present Perfect Continuous** ma'lum bir nutq momentidan oldin boshlangan va tugallanishga yaqin qolgan ish-harakatni ifodalashdan iborat.

Ingliz tilida **fe'ning o'tgan noaniq zamoni** yoki **Past Indefinite Tense** ish-harakatni nutq momentidan ancha oldin sodir bo'lganligini anglatadi. Ish-harakatning ayni vaqtdan oldin sodir bo'lganligini yoki nutq momentigacha tugallanganligini ifodalash uchun vaqtni ifodalovchi *yesterday, long ago, in 1991* kabi leksik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shu tariqa bunday shakllarning nutq

momenti bilan muvofiqlashuvi nutq momentining harakat sodir bo'lgan vaqtga nisbatan aloqasi yo'qligi bilan xarakterlanadi, shuningdek hikoya qilish vazifasini bajarish bilan ajralib turadi.

Ingliz tilida o'tgan zamon fe'li ham hozirgi zamon fe'li kabi davomli va tugallangan zamon shakllariga ega.

1. ***O'tgan zamon davom fe'li*** yoki ***Past Continuous Tense*** o'tgan zamonda aniq bir vaqt mobaynida davom etgan ish-harakatni ifodalaydi. Ushbu zamon *to be* fe'lining o'tgan zamon, shaxsli shakli (*was, were*) hamda tuslanuvchi fe'lining shu zamondagi sifatdash I bilan birikishi orqali yasaladi. *I was reading a book.*

2. ***Ingliz tili fe'lining o'tgan tugallangan zamon shakli*** yoki ***Past Perfect Tense*** o'tgan zamonda davom etgan nutq jarayonidan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Odatda ushbu zamon shakli yolg'iz o'zi ishlatilmay balki Past Indefinite Tense zamon shakli bilan birgalikda qo'llaniladi. *When he had stopped laughing, everybody left the room.*

3. ***O'tgan zamon tugallangan davom fe'li*** yoki ***Past Perfect Continuous Tense*** o'tgan zamonda sodir bo'lgan biror voqea-hodisaning qancha vaqt davom etganligini ifodalashda qo'llaniladi. *When I came he had been watching TV for two hours.*

Ingliz tilidagi fe'llarning ***kelasi noaniq zamon shakli*** yoki ***Future Indefinite Tense*** ish-harakatni nutq momentidan ancha keyin sodir bo'lishini anglatadi. Bu holat ish-harakatning davomiylilik, tugallanganlik kabi xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan tarzda amalga oshadi. Fe'ning ushbu zamon shaklining ham davomli, tugallangan shakllari mavjud.

Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalar – ilmiy-texnika kitoblari, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasidan farqi badiiy adabiyotning fan sohalaridan farqlanishiga o'xshaydi. Boshqacha aytganda, badiiy tarjimaning o'ziga xosligi badiiy adabiyotning o'ziga xos sifatlari bilan belgilanadi. Lekin badiiy tarjimaning original badiiy adabiyotdan farqi unda filologik tahlil va lisoniy-uslubiy qiyosning

ishtirok etishi bilan belgilanadi[16; 110b]. Shu o'rinda savol tug'iladi. Nega badiiy asarning barcha talablariga javob beruvchi tarjima asarlar yaratadigan tarjimonni tarjimon deb ataymiz? Yozuvchi deb atasak bo'lmaydimi? Yozuvchi, shoir, dramaturgdan badiiy adabiyot janrlaridagi asarlarni o'z tiliga o'girish bilan shug'ullanuvchi ijodkor muallif muddaosini o'z tilida qayta ifodalaydi, tom ma'noda asarni qayta tiklaydi. Yozuvchi ba'zan sof uslubiy maqsadlarda – o'zi tasvirlayotgan davr hamda turli ijtimoiy munosabatlarning til xususiyatlarini, personajlar tilining o'ziga xosligini berganda ichki lisoniy-semantik tahlil hodisalariga duch keladi. Badiiy tarjimada *intuitsiya* bilan *tahlil*, *ilhom* bilan *qiyos*, *interpretatsiya* bilan *aniqlik* doim birga yuradi[7; 113b]. Birgina ilhomning o'ziga tayanib qilingan tarjima badiiy asar me'yorlariga zid, faqatgina til bilishning o'ziga tayanib qilingan tarjima esa badiiy ijod namunasini joziba, zavq, estetik ma'nodan mahrum etishi mumkin. Asl nusxadan qilingan taglama tarjima bilan uning badiiy tarjimasi qiyos qilinganda, tarjimonning tadbiri, mahoratining siri nimada ekanligi ayon bo'ladi.

*We need scarcely to assure you that we are making hay
while the sun shines (29;373b). // Можете быть
уверены, что мы стараемся как можно лучше
использовать момент (32; 308b). // Ko'nglingiz to'q
bo'lsin, vaziyatdan imkoni boricha yaxshiroq foydalanib
qolishga harakat qilamiz(24; 383).*

Buyuk amerikalik yozuvchi Jek Londonning “Martin Iden” asaridan keltirilgan yuqoridagi gapda muallif oldindan rejalashtirilayotgan ish-harakatni ifodalash maqsadida Present Continuous Tense ya'ni hozirgi zamon davom fe'lini qo'llamoqda. Uning o'zbek tiliga tarjimasida esa tarjimon mazmunan muvofiqlikni saqlamoq maqsadida fe'lining hozirgi-kelasi zamon shaklidan unumli foydalanmoqda va bu tarjimaning to'liq va sifatli bo'lishini taminlamoqda.

Badiiy tarjimada predikatning temporallik kategoriyasini to'laqonli saqlash tarjimaning shaklan muvofiqligini taminlash vazifasini ham o'taydi.

Shunday bo'lsada, mazmunan muvofiqlikni saqlash tarjimaning barcha talablarga javob beradigan ravishda sifatli bo'lishini taminlashini unutmaslik lozim.

Avvalombor matn kategorial birligi bo'lgan badiiy zamon xususiyatlarini ham saqlab qola olgan tarjimon mehnati tahsinga sazovor bo'lgan bo'lar edi. Ammo, asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-birigateng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari kamdan-kam hollarda bir-biriga ekvivalentlik holatida bo'ladi. Shu sababdan ko'r-ko'rona tarjima qilish mumkin emas. So'zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatlari o'zaro bir-birining o'rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham matn tili qanchalik serma'no, badiiy tarafdin serjilo bo'lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi.

Tarjimada yolg'iz mazmun birligi saqlanib, shakl birligi saqlanmay qolishi uning tarkibiy jarangdorligiga putur yetkazishi mumkin. Masalan, quyida keltirilgan F. Kuperning "So'nggi mogikan" romanidan parchadan tarjimada predikat temporalligining to'la-to'kis saqlanganligini kuzatamiz. Ma'lumki, ko'p hollarda ingliz tili fe'lining hozirgi tugallan zamondagi shakli o'zbek tilidagi fe'llarning yaqin o'tgan zamon formasi bilan ekvivalent sanaladi. Ikkala tilda ham ushbu zamonlar aynan bir vazifani ifodalashga xizmat qiladi. (*I have been – bo'lganman; have folloved – yo'l bosishimga to'g'ri kelgan; have never found – ko'rmaganman*) Bunday tarjima barcha til me'yorlariga muvofiq bo'lib, temporallikning to'liq saqlanib qolinginligi, mazmun birligiga ham putur yetkazmagan. Ushbu tarjima saviyasi yuqori darajada ekanligini takidlash lozim

I have been on many a chocking field, and have folloved a trail of blood for weary miles, but never I found the hand of the devil so plain as it is pure to be seen (28; 202). // Я бывал на многих полях битвы, мне приходилось идти по кровавому следу в продолжение долгих часов, но я нигде не видел так ясно руки дьявол, как она видна здесь (33; 676). // Men ko'plab jang maydonida bo'lganman, qonli izlardan soatlab yo'l bosishimga to'g'ri kelgan, illo hech

qachon, hech yerda iblisning qattol panjalarini, shu yerdagichalik ochiq-oshkor ko'rmaganman (23; 187).

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishguniga qadar tarjima adabiyotimiz asosan rus tili vositasida qilingan tarjima asarlaridan iborat edi. Ernest Hemingueyning jahon urushidan keyin yaratgan "Alvido, qurol!" asarining o'zbek tiliga bilvosita qilingan tarjimasi mukammal deb tan olingan bo'lishiga qaramay, bir qancha nuqsonlardan ham xoli emas. Quyida asar tarjimasidan keltirilgan misolda tarjima matnidagi predikat temporallik kategoriyasining asliyat matnidagiga muvofiq kelmaganligiga guvoh bo'lamiz. Asliyat matnida muallif urush davrini hikoya qilib bera turib, xronologik ketma-ketlikni ifodalash uchun Past Indefinite Tense ya'ni fe'lining o'tgan zamon formasini qo'llaydi, "*There was still racing in Milan...*". Rus tili vositasida o'girishga kirishgan tarjimon ushbu gapning rus tilidagi tarjimasining o'tgan zamonda emas balki hozirgi zamonda ("*В Милане по-прежнему бывают скачки...*") uzatilganligidan foydalangan holda, asliyatni fe'lining hozirgi zamon shakli bilan o'quvchi ommasiga yetkazadi. Ushbu munosabat bilan asliyat va tarjima o'rtasida mazmun birligi yo'qotilmagan bo'lsa-da, bizning fikrimizcha shaklan muvofiqlik saqlangan holda "*... Milanda hamon uloq choptirishlar bo'lib turardi*" qabilida berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

There was still racing in Milan and the war could not be much worse (26; 95). // В Милане по-прежнему бывают скачки, хотя война в разгаре (34; 374). // Urush avjida bo'lishiga qaramay, Milanda hamon uloq chopishlar bo'lib turadi (22; 138).

2.2. Badiiy tarjimada temporallik tahlili.

Tarjima nazariyasi, boshqacha aytganda tarjimashunoslik tarjima jarayoni, uning qonuniyatlari, asliyat va tarjima matnlari ustida olib borilayotgan kuzatishlarni umumiyalashtirish, sistemalashtirish orqali ikki til orasidagi muvofiqlik darajasini ularning o'ziga xos xususiyatlari mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan

filologiya sohasidir [35]. Uning vazifasiga tarjimonning milliy madaniyat rivojidagi o'rnini belgilash, amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqish ham kiradi.

Tarjima nazariyasining tadqiq obyekti tarjima jarayoni, tarjima nazariyasini rivojlanishiga asos bo'luvchi turli asarlar va ularning tarjima matnlaridir.

Avvalgi qismlarda ta'kidlanganidek, tarjima o'zining janriy-stilistik xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Biri sohaviy (ilmiy, texnik, publitistik va hk.) tarjima turi bo'lsa, ikkinchisi badiiy (she'riy, nasriy) tarjimadir. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, uning bosh vazifalaridan biri badiiy adabiyot namunalariidagi kommunikativ ta'sirning yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lgan badiiy estetik zavqni uzatish sanaladi.

Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv – tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning aksiologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy-estetik va badiiy fasohatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir. So'nggi yillarda jahon tarjimachiligi amaliyoti tarjima ishlarining saviyasiga tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarining uyg'un holda birlashishi ijobiy ta'sir etishini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, badiiy asar tarjimasi ustida ishlayotgan tilshunoslik estetik tahlil va adabiyotshunoslik yondashuvidan holi bo'la olmaydi. Xuddi shuningdek, adabiyotshunos ham tarjima ustida fikr yuritir ekan, lingvistik jihatlar va til normalarini hatlab o'ta olmaydi. Tarjimashunos olim M. Xolbekov xorijlik tarjimashunos olimlarning ilmiy konsepsiyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi kommunikativ vositaga aylanganligini tarjimaning lingvistik va adabiy aspektlari tarafdorlari o'rtasida e'tirof etilayotganligini alohida takidlaydi. Badiiy tarjimada tarjimaviy ekvivalentlik tushunchasi mavjud bo'lib, asliyat matnidagi badiiy va grammatik

zamonlarning tarjima matnida aynan ekvivalentini berish kabi masalani ham tarjimon oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi. Endilikda oldimizga qo'yilgan masala yuqorida bayon etilgan badiiy matn va badiiy tarjima matnida temporallik mavzusiga doir bayon etilgan nazariyaga tayangan holda, quyida badiiy tarjima matnida temporallik ifodasi va uning qay darajada saqlanganligi tahlil etish va shu orqali nazariyaning ahamiyati va isbotini keltirishdir. Bunga biz amerikalik buyuk yozuvchi Mark Tvenning rus tili orqali o'zbek tiliga tarjimon Shoir Usmonxo'jaev tomonidan bilvosita qilingan tarjima asarini tanladik. Bu asar olib borilayotgan tadqiqot ishimiz mavzusiga juda yaqin bo'lib, temporallikning bir necha ko'rinishlari bo'lmish badiiy va grammtik zamonlar tahlili uchun misollarga boy. Tvenning *“Yanki va Qirol Artur”* romani ham o'zbek tiliga bilvosita yani, rus tili orqali tarjima qilingan asarlar sirasiga kiradi. Bu kitobni taniqli tarjimonimiz Shoir Usmonxo'jaev tamonidan rus-tilidan tarjima qilgan. Avvaliga asar muallif Mark Tven yashab turgan zamon XIX - XX asrlar aks ettiriladi. Keyinchalik voqealar rivoji Angliyada VI asrda hukmronlik qilgan anglo-saksonlar shajarasidan bo'lmish buyuk qirol Artur davriga ko'chadi. Bu asarda asosan qirollik saroyidagi voqealar haqida gap boradi. Xususan, insonga mansab olloh tamonidan in'om etilishi va bunga munosib inson bo'lishini qirollar misolida ko'rsatib berishga harakat qilingan. Bu asardagi voqealar Angliyadagi qirollik boshqaruvi keyingi davrlarda ham boshqa ko'plab davlatlarda davom etgani haqida so'z yuritiladi. Zamonning bunday ortga qaytishi va o'tmishni tasvirlashi avval bayon etilganidek, badiiy asarda aks ettirilgan ma'lum bir zamonda bo'lib o'tgan voqealar, tarixiy xronologik voqealar bilan mos kelmasligi mumkinligining isboti sanaladi. Ushbu hodisa tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmlarida retrospektiv hodisa nomi bilan mashhurdir.

Asar quyidagi jumlar ila boshlanadi:

It was in Warwick Castle that I came across the curious stranger whom I am going to talk about. He attracted me by three things: his candid simplicity, his marvelous familiarity with

ancient armor, and the restfulness of his company-for he did all the talking [30; 4].

С забавным незнакомцем, о котором я собираюсь рассказать, я встретился в Варвикском замке. Он мне понравился тремя своими свойствами: искренним простодушием, изумительным знанием старинного оружия и еще тем, что в его присутствии можно было чувствовать себя совершенно спокойно, так как все время говорил он один[31; 4].

Men hikoya qilmoqchi bo'lganim – g'alati kishi bilan Varvik qasrida uchrashib qoldim. U o'zining uchta fazilati bilan manga yoqib qoldi. Bu notanish odam juda ochiqko'ngil, qadimiy qurol-aslahalarni hayron qolarli darajada yaxshi bilar, uchinchisi shu ediki, uning yonida o'zingizni erkin his etasiz, chunki sizga gal bermay, tinimsiz gapiraveradi[35; 4].

Badiiy asar tarjimasidan keltirilgan parchada o'tgan zamonda sodir bo'lgan voqea-hodisani bayon etish hamda tasvirlash maqsadida adib Past Simple Tense zamonini qo'llaydi. Tarjima matnida ham rus va o'zbek tillarida ham grammatik zamon to'laligicha saqlangan holda o'zbek tili fe'lining aniq o'tgan zamon shaklida o'giradi. O'zbek tilidagi fe'lining aniq o'tgan zamon shakli ish-harakat so'zlovchining ko'z oldida yoki uning ishtirokida bajarilganligini anglatadi.

Now what does this man do but fall back a couple of hundred yards and then come rushing at me as hard as he could tear, with his nail-keg bent down nearly to his horse's neck and his long spear pointed straight ahead. I saw he meant business, so I was up the tree when he arrived [30; 6].

Что же он тогда, по-вашему, сделал? Он отъехал ярдов на двести и поскакал во весь опор прямо на меня, склонив

свой железный бочонок к шее лошади и выставив вперед длинное копье. Я увидел, что он не шутит, и когда он доскакал до меня, я был уже на дереве [31; 7].

Shundan so'ng nima qildi deng? U chamasi ikki yuz qadam orqaga chekindi-da, qumg'onli kallasini otning bo'yniga qapishtirib, nayzasini to'g'irlagancha bor kuchi bilan men tomon ot surib kela boshladi. Uning qilig'ida zarracha ham hazil yo'qligiga ishondim-da, to u yetib kelgunicha dovur daraxti ustiga chiqib oldim [25; 8]

Yuqorida keltirilgan asliyat va tarjima matnlaridagi fe'llarning zamon kategoriyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, parchaning so'nggi jumlasini, qo'shma gap *'so I was up the tree when he arrived'* ingliz tili fe'lining Past Simple Tense zamonidan, zamonlar moslashuvini inobatga olgan holda ifodalangan. Gap temporalligini va tarjimada shaklan muvofiqlik to'laqonli saqlamoq maqsadida ushbu gapni o'zbek tiliga quyidagicha o'girish mumkin: *U yetib kelganida, men daraxt tepasida edim*. Ya'ni asliyatda harakat holat fe'li *to be* fe'li bilan berilgan va tarjimada ham holat saqlanib qolmog'i maqsadga muvofiqdir. Ammo badiiy tarjima ijodiy-estetik faoliyatdir. U doim ham tilshunoslikning qat'y qoidalariga to'la rioya eta olmaydi. Aks holda u o'zining badiiy-estetik zavqini yo'qotib qo'yishi mumkin. Asarning mohir tarjimoni Shoir Usmonxo'jaev ushbu jimilani quyidagi tarjima variantida ifoda etadi: *...to u yetib kelgunicha dovur daraxti ustiga chiqib oldim*. Tarjimada esa harakat o'timsiz fe'l *chiqib oldim* bilan ifoda etilmoqda. Tarjimashunoslik sohasida ushbu holat generalizatsiya, ya'ni ma'no kengayishi hisoblanadi. Ikkala holatda ham asliyat mazmuni to'laqonli saqlanib qolmoqda. Chunki fe'lining grammatik zamoni asliyatdagi kabi o'tgan zamonga taaluqli.

It was but a little thing to promise-thirteen hundred years or so-and he so eager; so I said Yes. But I sighed; I couldn't help it. And yet there was no sense in sighing, for she wasn't born yet.

But that is the way we are made: we don't reason, where we feel; we just feel [30; 30].

Мне было нетрудно дать ему обещание: тринадцать столетий – такие пустяки; и я сказал: «да». Но вздохнул при этом, я не мог удержать вздоха. То был бессмысленный вздох, – ведь она еще не родилась. Но так уж мы устроены... в наплыве чувств мы не рассуждаем, мы просто чувствуем [31; 35].

Hech xavotir Klarensiga va'da bersam bo'ladi: bor yog'i o'n uch asr farqi bor ekan. Shuning uchun "ha" dedim. Lekin o'zimni og'ir xo'rsinishdan tutib turolmadim. Chunki mashuqam hali tug'ilmagan. Nima ham qila olardim, inson tabiati shunaqa ... to'lqinlanib ketgan paytida mulohaza qilmaydi, shunchaki hissiyotga beriladi [25; 63].

Yuqorida keltirilgan asliyatdan olingan parchaning dastlabki jummalari o'tkan zamonda birin-ketin sodir bo'lgan voqea hodisalar bayonidan iborat.

Temporallikning bunday ma'no xususiyatlarini ifodalovchi vositalar ingliz tili fe'lining Past Simple shakli hamda o'tkan zamon ifodalovchi ravishlardir. Tarjima matnida esa o'zbek tili fe'lining hozirgi-kelas zamon shakli orqali o'girilgan.

Ushbu jumla modallik ya'ni imkoniyatni ham ifodalamoqda. Asliyat va tarjima matnida fe'l zamonlari o'rtasida tafovut bo'lsa-da, muallif uzatmoqchi bo'lgan xabar o'z mazmunini to'la saqlab qola olgan.

Keyingi jumlalarda esa muallifda o'z bayoning voqelik bilan bog'liqligiga ishon tirish istagi tug'iladi. Hamda ushbu istak uni Past Simple Tense zamonidan Present Simple Tense zamoniga ko'chishga undaydi: ... *But that is the way we are made: we don't reason, where we feel; we just feel.* Tarjima matnida ham ushbu holat kuzatiladi. O'tkan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatni bayon etib bo'lgach, tarjimon bayonning reallik bilan bog'liqligini isbotlash maqsadida o'tgan o'zbek

tili fe'lining aniq o'tkan zamon shaklidan fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakliga ko'chaypti: ... *Nima ham qila olardim, inson tabiati shunaqa ... to'lqinlanib ketgan paytida mulohaza qilmaydi, shunchaki hissiyotga beriladi.*

In my experience boys are the same in all ages. They don't respect anything, they don't care for anything or anybody. They say "Go up, baldhead" to the prophet going his unoffending way in the gray of antiquity; they sass me in the holy gloom of the Middle Ages; and I had seen them act the same way in Buchanan's administration; I remember, because I was there and helped. The prophet had his bears and settled with his boys; and I wanted to get down and settle with mine, but it wouldn't answer, because I couldn't have got up again. I hate a country without a derrick [30; 30-31].

Я по опыту знаю, что мальчишки во все века одинаковы. Они ничего не уважают, никем и ничем не дорожат. Они орал: «Проваливай, плешиный!» пророку, который в глубокой древности шел своей дорогой, никого не трогая; они дразнили меня в священном сумраке средневековья; так же они поступали и во время президентства Бьюкенена; это я хорошо помню, потому что сам был тогда мальчишкой и хулиганил вместе с ними. У пророка были медведи, и они разделались с тогдашними мальчишками; я хотел слезть с коня и разделаться с теперешними, но это было неисполнимо, потому что я не смог бы влезть обратно. Ненавистная страна, где нет подъемных кранов [31; 37]!

Tajribamdan shuni bilamanki, barcha bolalar hamma asrlarda ham bir xil bo'lishadi. Ular hech narsani pisand etishmaydi, hech narsa va hech kimning qadriga yetishmaydi. Ular hech kimga ozor bermay o'z yo'lida ketayotgan uzoq o'tmishning payg'ambariga

ham: “Qurib ketgur kal!” deya baqirishgan. Ular o’rta asrning muqaddas oqshomida menga tegajanlik qilishmoqda, Byukenyan prezidentligi davrida ham ular shunday qilishgan, buni yaxshi bilaman, negaki o’shanda o’zim bola edim va boshqalarga qo’shib men ham bezorilik qilganman. O’sha paytda payg’ambarning ayiqlari bo’lgan va ayiqlar bolalarni bir yoqli qilgan edi, men esa otdan tushib hozirgi bolalarni bir yoqli qilmoqchi bo’lardim-u, biroq buning iloji yoq, chunki tushsam otga qayta minolmayman. Ko’tarma kranlari bo’lmagandan keyin shuyam mamlakat bo’libdimi [25; 65]?

Yuqorida e’tiboringizga havola etilayotgan asaliyat va tarjima asrdan parchada matn temporalligining turli ko’rinishlariga duch kelamiz. Tahlil qilinayotgan parchada matnning kompozitsion tuzilishini ikki tamoyilga amal qilgan holda qisimlarga ajratib olamiz. Birinchisida hikoya ichida hikoya usuliga tayaniladi. Bunda voqealar bayoni ikki ko’rinishdagi zamon tasviriga ega – syujet bilan bog’liq hozirgi zamon va syujetdan oldingi (unga bog’liq bo’lmagan davrni aks ettiruvchi) o’tgan zamon. Ikkinchi tamoyil esa vaqt oralig’ini bevosita bajarilayotgan harakatlar (personajlar muloqoti, harakatlar) davri hamda muallif bayoni va chekinishlarini aks ettiruvchi davrlar farqiga asoslanadi. Dastavval parchanin g’astlabki ikki jumlasida Present Simple Tense zamoni ila ifoda etilayotgan vaqt umumiylik, takroriylikni ifoda etadi. Tarjima matnida ham matnning temporal maydoni saqlangan holda ish-harakat hozirgi zamon bilan ifoda etilmoqda.

Asardan keltirilgan parchaning keyingi jumalartida esa retrospeksiya (orqaga qaytish) qahramonning xotiralari tarzida bayon etilib, hikoya ichida kichik hikoyacha ko’rinishini olmoqda. Ya’ni qahraman boshidan o’tgan voqealarni xotirlamoqda. Ushbu hikoya bayonining zamon maydonida mustaqil qobiqlar hosil bo’lib, u asosiy hikoya bayoni bilan yonma-yon qatorlarda joylashmoqda. Ushbu retrospektiv chekinish holati axborot mavzida rema mazmunini olmoqda. Ya’ni

unda shu paytgacha ma'lum bo'lmagan yangi ma'lumot xabari mavjud. Shu paytgacha ma'lum bo'lmagan voqealar bayoni asosida umumiy mavzu rivoji taminlanadi. Syujet zamonining harakatda bo'lishi mavzu va mazmun rivojining talabidir. O'tmishga qaytishning bayon etilishi ingliz tilining Past Simple Tense zamonida bayon etilib, o'zbek tiliga fe'lning yaqin o'tgan zamon shakli orqali o'girilib, jumla o'rtasida o'z fikri isboti tariqasida yana hozirgi zamonga ko'cmoqda: ... *Byukenyan prezidentligi davrida ham ular shunday qilishgan, buni yaxshi bilaman, negaki o'shanda o'zim bola edim va boshqalarga qo'shilib men ham bezorilik qilganman.*

XULOSA VA TAKLIFLAR

Matnning tizimiyligi uning konstruktiv (qurilmalik) xususiyatlarida namoyon bo'ladi va bu xususiyatlarni uning mazmuniy hamda tarkibiy yaxlitligidan izlash lozim. Matn qismlarining mazmuniy va sintaktik tartibotida tafakkur jarayonini ta'minlovchi fikr va g'oyalarning ketma-ketligi o'z ifodasini topadi. Matn mazmunini tarkib toptiruvchi qonuniyatlar ham lisoniy tafakkurda hosil bu'luvchi «bog'lam»lar bilan moslashadi. Bunday bog'lamlar umumiylik-xususiylik, sabab-oqibat, yahlit-qism munosabatlarini aks ettirishdan tashqari, davriy ketma-ketlik, yagona zamon va makonda sodir bo'lish kabi tavsifiy-mantiqiy ko'rsatkichlarga ham ega bo'ladi.

Matn temporallik strukturasi uning mazmuniy mundarijasining tarkibiy qismi bo'lib, u matnda mazmun yaratish va uni idrok e'tish faoliyatlari uchun bir xilda muhim. Temporallikning mazmun shakllanish jarayonidagi o'рни alohida ekanligi uning matn qismlari o'rtasidagi semantik-mantiqiy bog'lanish, ya'ni kogerensiyani ya'ni mazmundorlik ta'minlashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Badiiy matnlardagi voqelik bayoni bevosita nutqiy faoliyat jarayonidagiga nisbatan o'zgacha kechadi va shu sababli bu turdagi matnlarda nutq lahzasiga nisbatan mo'ljallanish unchalik faol emas, chunki bunday holatda uzatilayotgan axborot real voqelik bilan bog'liq bo'lmasdan, u ko'pincha muallifning ijodiy tasavvuri natijasidir. Shunga binoan badiiy matnda zamonni shartli kategoriya deb qarab, uning vazifasini to'qima (noreal) voqelikni bayon qilish uslubi faollashuvida ko'rmoq kerak.

Badiiy matnda voqealar rivoji bir tekis kechmaydi, balki umumiy syujetdagi vaziyatlar o'zgarib, yangi holatlar yuzaga kelib turadi, natijada zamon ko'rsatkichlarining ma'no va vazifasida o'zaro ko'chish, o'zaro qorishish holatlari yuzaga keladi. Bunday holat asosan o'tgan zamon formasi orqali hozirgi zamonda sodir bo'layotgan voqea bayonida kuzatiladi, hozirgi zamonning davriy siljish holatlari nisbatan kamroq uchraydi. Zamon shakllarining transpozitsiya hodisasi badiiy matnning kommunikativ mazmuni va uning tarkibiy qatlamlaridan bo'lgan temporallik semantikasini shakllantiruvchi omillardan biridir.

Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv – tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning aksiologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy-estetik va badiiy fasohatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir. So'nggi yillarda jahon tarjimachiligi amaliyoti tarjima ishlarining saviyasiga tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarining uyg'un holda birlashishi ijobiy ta'sir etishini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, badiiy asar tarjimasi ustida ishlayotgan tilshunoslik estetik tahlil va adabiyotshunoslik yondashuvidan holi bo'la olmaydi. Xuddi shuningdek, adabiyotshunos ham tarjima ustida fikr yuritir ekan, lingvistik jihatlar va til normalarini hatlab o'ta olmaydi. Tarjimashunos olim M. Xolbekov xorijlik tarjimashunos olimlarning ilmiy konsepsiyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi kommunikativ vositaga aylanganligini tarjimaning lingvistik va adabiy aspektlari tarafdorlari o'rtasida e'tirof etilayotganligini alohida takidlaydi. Badiiy tarjimada tarjimaviy ekvivalentlik tushunchasi mavjud bo'lib, asliyat matnidagi badiiy va grammatik zamonlarning tarjima matnida aynan ekvivalentini berish kabi masalani ham tarjimon oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi. Endilikda oldimizga qo'yilgan masala yuqorida bayon etilgan badiiy matn va badiiy tarjima matnida temporallik mavzusiga doir bayon etilgan nazariyaga tayangan holda, quyida badiiy tarjima matnida temporallik ifodasi va uning qay darajada saqlanganligi tahlil etish va shu orqali nazariyaning ahamiyati va isbotini keltirishdir.

A D A B I Y O T L A R R O ' Y X A T I

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: 2007. – 210 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: Sharq,1999. – 37b.
3. Karimov I.A. istiqlol va ma'naviyat.-T:O'qituvchi, 1994. – 45 bet.
4. Ayub G'ulomovning ilmiy merosi (elektron versiya). 2-kitob. –Toshkent. 2006. – 54 b.
5. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan maruzalar matni. Nukus.: 2012. – 48 b.
6. Boymirzaeva S. O'. O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferat. Toshkent.: 2010. – 45 b.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1978. – 220b.
8. Tarjima san'ati: Maqolalar to'plami. I kitob. T.:1991. – 201 b.
9. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. III kitob. T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – 310 b
- 10.Tarjima san'ati: Maqolalar to'plami. 5-kitob – T., Adab. va san'at nash., 1980. – 304 b
- 11.Tojiyev Yo. O'zbek tilida gap va gap bo'laklarining maqomi maslasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2005. - №4.
12. Usmonov O'. U., Ashurov Sh. S. Ingliz tili nazariy grammatikasi fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Samarqand.: 2007. – 95b.
- 13.Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. – 69 b.
14. Blokh M. Y. A course in theoretical English grammar. Moscow. – 2001. – 245p.
- 15.Fred Cohen. Computer Viruses. Dissertation, In partial Fulfillment of the requirements for the degree DOCTOR OF PHILOSOPHY. – California,

1986. – 152 p.
16. Galperin I. R. Stylistics. Moscow: High School Publishing House. –1971. – 344p.
17. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. Москва: Высшая школа. – 1986. – 296с.
18. Белоног О. В. Темпорально-аспектуальная характеристика пассивных конструкций в современных немецких научных текстах. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Санкт-Петербург, 2011. – с. 22.
19. Словарь. Современная западная философия. Ред. В.Н.Садовский. М. Изд. полит. литер. 1991, – с. 298.
20. Тураева З. Я. Категория времени: Время грамматическое и время художественное. Высшая школа. М., 1979. – 220 с.

BADIIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

21. Charles Dickens. Bleak house. Moscow: Foreign languages publishing house, 1957. – 932 p.
22. Ernest Heminguey. Alvido, qurol! Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1973. – 344 b.
23. Fenimor Kuper. So'nggi mogikan. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1973.
24. Jek London. Martin Iden.
25. Mark Tven. Yanki va qirol Artur. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.: 1984. – 318b.
26. Ernest Hemingway. A farewell to Arms. Moscow. Prosvesheniye.: 1971. – 260 p.
27. Ernest Hemingway. Selected stories. Moscow: Progress Publishers, 1971. – 100 p.
28. F. Kooper. The last of the Mohicans.
29. Jack London. Martin Eden.

30. Mark Twain. A Connecticut Yankee in King Arthur's Court. (Elektron versiya) Библиотека Альдебаран. <http://lib.aldebaran.ru>
31. Твен Марк. Янки из Коннектикута при дворе короля Артура. Роман: [для сред. и сб. шк. возраста] / Марк Твен [Перевод с английского Н. Чуковского; Рис. М. Беломлинского]. – Л: Дет. лит. Ленингр.: 1988. – 333 с
32. Джек Лондон. Мартин Иден.
33. Ф. Купер. Последний Могикан.
34. Эрнест Хемингуэй. *Прощай, оружие! Ташкент. Узбекистан.: 1989.* – 606 с.

FOYDALANILGAN ELEKTRON MANBALAR

35. www.muloqot.uz Sh. Sirojiddinovning shaxsiy blogi: Tarjima nazariyasi va badiiy matn tushunchasi.
36. www.ziyonet.uz
37. <http://www.ziyouz.com>
38. www.wikipedia.uz